

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

GAFUROVA SURAYYO ULUG‘BEKOVNA

“TAVORIXI GUZIDA. NUSRATNOMA” ASARI LEKSIKASI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук
(DSc)**

The contents of the dissertation abstract of the Doctor of Philology (DSc)

Gafurova Surayyo Ulug‘bekovna

“Tavorixi guzida. Nusratnoma” asari leksikasi.....3

Gafurova Surayyo Ulugbekovna

Lexicon of the work “Tavorixi guzida. Nusratnoma”37

Гафурова Сурайё Улугбековна

Лексика произведения «Таворихи гузида. Нусратнома».....57

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 62

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

GAFUROVA SURAYYO ULUG‘BEKOVNA

“TAVORIXI GUZIDA. NUSRATNOMA” ASARI LEKSIKASI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.DSc/Fil200 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Dadabayev Xamidulla Aripovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Odilov Yorqinjon Raxmonaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

O'razboev Abdulla Durdibayevich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Nursan Ildiri
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «27» mart soat 800 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (102 raqami bilan ro'yxatga olingan) Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «15» mart kuni tarqatildi.
(2025-yil «15» mart dagi 10 raqamli reyestr bayonnomasi)



S.M.Muminov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
a'zosi, filologiya fanlari doktori, professor

M.T.Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kотиби, filologiya fanlari nomzodi,
professor

G.Z.Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy/seminar raisi o'rinbosari,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida har bir milliy tilning mumtoz namunalari bo'lgan qadimgi yozma yodgorliklarni lingvistik asosda o'rganish, ularning mazmunini bugungi avlodga aslidagidek yetkazish asosiy vazifalardan biri hisoblanmoqda. Tilning eng o'zgaruvchan sohasi sanalgan leksikologiyani tizimli tadqiq etish, uning tarixiy manbalardagi ifodasini, mazmuni va ahamiyatini kelajak avlodga yetkazish hozirgi kunda har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma'noda tarixiy asar leksikasiga doir muammolarni tadqiq qilish, ularning tarixiy tadrijini sinxron va diaxron aspektda tahlil qilish, til tarixiga doir falsafiy va sinergetik qonuniyatlarni aniqlash imkoniyati tug'iladi. Har qanday til hodisasiga tarixiy jihatdan nazar tashlash, birlamchi manbalarga asoslanish, til taraqqiyotining turli davrlarida yaratilgan yozma yodgorliklar leksikasini qiyoslash asosida ular orasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash muhim vazifalardan sanaladi.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida olib borilayotgan lingvistik tadqiqotlar, jumladan, tarixiy manbalar va ularning leksik xususiyatlarini tavsiflashga doir izlanishlar soha rivojida alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ko'pchilik olimlar tomonidan katta qiziqish uyg'otayotgan sohalardan biri sifatida yozma yodgorliklar tilini tadqiq etish, qo'lyozmalarning tanqidiy matnlarini tayyorlash, nashr etish, keng xalq ommasiga yetkazish, chet tillarga tarjima qilish, ularning lingvistik xususiyatlarini ochib berish borasidagi tadqiqotlar tillarning jahon miqyosida o'z o'rnini va maqomiga erishuviga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ajdodlarimiz ilmiy merosini o'rganish uchun keng qamrovli imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilib, mazkur masalaga bag'ishlangan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayni paytda betakror ilmiy merosimizning hali to'liq o'rganilmagan qatlamlarini ochib berish, xususan, mamlakatimiz hamda chet el fondlarida saqlanayotgan noyob qo'lyozmalarni tadqiq etish ustuvor yo'nalishlardan biri tarzida belgilandi. Hozirgi kunda "...O'zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi 3 davr o'rta qo'yayotgan juda ko'p dolzarb muammolarga javob topish mumkin... Lekin biz ana shunday noyob meros vorislari, shunday boylik egalari bo'la turib, ularni har tomonlama o'qish-o'rganish, xalqimiz, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizga, jahon hamjamiyatiga yetkazish bo'yicha yetarli ish qilmaganimizni ham ochiq tan olish kerak"¹ ligi bebaho ma'naviy merosni tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishga asos bo'lmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda saqlanayotgan noyob qo'lyozmalarning elektron bazasini yaratish va yuritish, ularni tizim asosida chuqur o'rganishni tashkil qilish va nazariy jihatdan tavsiflash, yozma yodgorliklarning ilmiy izohlarini o'zbek va xorijiy tillarda ommaviy axborot vositalari va internetda nashr qilish, mamlakatimiz va xorijiy olimlar, mutaxassislar, o'quvchi yoshlarga ularning ijodlarini tanishtirish va o'rganish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shuningdek, tilning tarixiy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan manbalarning leksik xususiyatlari va ular asosida ma'naviy merosni o'rganish kabi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017 йил 23 декабрь, № 258.

bir qator muammolar doirasida maxsus tadqiqotlar olib borish masalasi o'z yechimini kutayotgan edi. Xususan, o'zbek tili tarixida alohida sahifani tashkil etgan XVI asr manbasi "Tavorixi guzida. Nusratnoma" asari so'z boyligi hozirgi kungacha monografik planda maxsus o'rganilmagan. Ma'lumki, ayni paytda yurtimizda "...matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o'rganilmagan ko'pgina qatlamlarini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilayotgani"² bu boradagi ilmiy izlanishlar ko'lamini yanada kengaytirishda asos vazifasini o'tamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Tarixiy manbalar tadqiqi, ularning manbashunoslik va matnshunoslik xususiyatlari, paleografik jihatlari, tilning rivojlanish bosqichlari, adabiy an'analar va yangilanishlar masalasi jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida, xususan, Peking University, Beijing (Xitoy), Academy of Korean Studies Grant (Koreya respublikasi), New York University (AQSh), University of Harvard, University of British Columbia (Kanada), Dzyoti University (Yaponiya), Hoji Beyrem Universiteti, Artvin Çoruh Universiteti (Turkiya), Xo'jand davlat

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизimini янада тақомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори. ПҚ-2995-сон 24.05.2017. Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизimini янада тақомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида (lex.uz)

³ Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи www.msu.ru, www.linguanet.ru, www.spbu.ru, www.kpfu.ru, www.altspu.ru, www.bloomington.iu.edu, www.uchicago.edu, www.sfu-kras.ru, www.columbia.edu, www.uw.edu.pl, www.uva.nl, tobolsk.utmn.ru, www.uni-leipzig.de, www.cam.ac.uk, www.ku.dk, www.unige.ch, www.hgu.tj, www.kaznu.kz, www.tsuull.uz, www.samdchti.uz, www.samdu.uz, www.adu.uz, www.fdu.uz ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди.

universiteti (Tojikiston), Al-Forobiy nomidagi Qozog‘iston milliy universiteti (Qozog‘iston), O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti, Urganch davlat universiteti, Andijon davlat universiteti, Farg‘ona davlat universiteti (O‘zbekiston)da keng ko‘lamda tadqiq etilmoqda.

Jahon tilshunosligida tarixiy-badiiy manbalar leksikasini tadqiq etish, yozma yodgorliklar yaratilgan davr adabiy tiliga xos xususiyatlar, lug‘aviy sath shakllanish bosqichlari, leksik birliklar semantikasini yoritishning dolzarbligi asoslab berilgan (Moskva, Sankt-Peterburg, Qozon, Oltoy, Sibir, Tobol universiteti, Rossiya); mumtoz asarlarning lingvistik xususiyatlari, muallifning so‘z qo‘llash mahorati yoritilgan (University of British Columbia, Kanada; Rossiya Fanlar akademiyasi tilshunoslik instituti, Rossiya federatsiyasi), hozirgi adabiy tillarning shakllanishida qadimgi yozma yodgorliklarning o‘rni masalasi tahlilga tortilgan (Academy of Korean Studies Grant, Koreya respublikasi; Boshqird davlat universiteti, Rossiya federatsiyasi), ma’naviy meros, tarixiy yodgorliklarning tanqidiy matnlari yaratilgan (Qozog‘iston milliy universiteti, Qozog‘iston; Xo‘jand davlat universiteti, Tojikiston; Moskva davlat lingvistika universiteti, Rossiya federatsiyasi), mumtoz asar tadqiq etilgan, yozma manbalarning ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy qiymati belgilangan, badiiy hamda til xususiyatlari o‘rganilgan (O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti, Andijon davlat universiteti, Farg‘ona davlat universiteti, O‘zbekiston) Olib borilgan mazkur tadqiqotlar natijasida tarixiy asarni lingvistik jihatdan tahlilga tortish nazariyasi yaratilgan.

Dunyo tilshunosligida yozma yodgorliklarning til xususiyatlari ustida izlanishlar olib borish, tarixiy manbalarni o‘rganish, xususan, qo‘lyozma, toshbosma asarni o‘qish, tahlil qilish, til xususiyatlarini o‘rganish, keng ommaga taqdim etish borasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: muayyan manbaning kutubxonalarda saqlanayotgan nusxalarini o‘zaro solishtirish, ularning qiyosiy-tanqidiy matnini yaratish; qo‘lyozma va toshbosma matnlarni o‘rganib, asl nusxasiga yaqinlashtirish; manbalarning joriy yozuvdagi transliteratsiyasini nashr etish, keng kitobxonlar ommasiga tanishtirish; tilshunoslik, adabiyotshunoslik, manbashunoslik va matnshunoslik nuqtai nazardan tahlil etish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tilshunosligida olib borilgan bir qator tadqiqotlarda yozma yodgorliklar tilini o‘rganish asosida muayyan davr tiliga xos xususiyatlar yoritildi. Jumladan, qadimgi turkiy til va eski turkiy til xususiyatlari aks etgan tadqiqotlar yaratildi⁴. XI-XIV asr yozma yodgorliklari leksikasi va terminologiyasi tadqiq etildi⁵, eski o‘zbek adabiy tili manbalari tilini

⁴ Содиқов Қ. XI-XV аср уйғур ёзувли туркий ёдгорликларнинг график-фонетик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри.. дисс. – Тошкент, 1992; Рустамова С. Маҳмуд Кошғарий луғатининг лексикографик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1998; Дадабоев Х. “Девону луғотит турк”нинг тил хусусиятлари. – Тошкент, 2017; Розикова Г. “Девону луғотит турк” асаридаги ол лексемаларнинг семантик, функционал ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. д-ри.. дисс. – Фарғона, 2021; Дўстмуродов М. Ўрхун-Енисей битигтошларидаги ҳарбий терминлар тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2023.

⁵ Наджиб Э.Н. Историко-сравнительный словарь тюркских языков XIV века: на материале “Хосрав и Ширин” Кутба. Кн. I. – Л-М, 1979; Фазылов Э.И. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. I-II. – Ташкент, 1966, 1971; Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент, 1991; Абдушукуров Б. XI-XIV аср туркий манбалар тилидаги зоонимлар. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; “Қиссаси Рабғузий” лексикаси. Филол. фан. д-ри.. дисс. – Тошкент, 2017.

o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yuzaga keldi, tarixiy yozma yodgorliklarning lingvistik xususiyatlari o'rganildi⁶.

XVI asr o'zbek tilining nodir namunalaridan biri "Tavorixi guzida. Nusratnoma" haqidagi ilk ma'lumotlar Ch.Ryo, V.Bartold, A.Semenov, K.Petrovlarning qaydlarida uchraydi⁷. R.G.Muqminova, S.A.Azimjonova, B.A.Ahmedov, S.K.Ibragimov, S.T.Bekmuradov⁸ hamda A.M.Akramovlarning izlanishlari orqali asar haqida ma'lum ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin⁹. Asarning til xususiyatlari, xususan, morfologik qurilishini ilmiy asosda o'rganish Mustaqillik yillaridan boshlandi¹⁰.

A.Xalilovning izlanishini hisobga olmaganda, "Tavorixi guzida. Nusratnoma" asarining til xususiyatlari, xususan, so'z boyligi maxsus tahlil etilmaganligi biz tomondan tanlangan mavzuning dolzarbligi va yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek tili tarixi masalalari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi "Tavorixi guzida. Nusratnoma" so'z boyligining miqdorini aniqlash, obidada qo'llangan leksik birliklarni lug'aviy qatlam asosida tasniflash, o'z qatlam va o'zlashgan qatlam nisbatini belgilash, so'zlarning semantik, funksional-stilistik xususiyatlari, leksik birliklar o'rtasidagi mazmuniy munosabatlarni tahlil etish, muallifning so'z qo'llash mahorati, asar tilining o'ziga xosligini ta'minlovchi lingvistik omillarni yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Tavorixi guzida. Nusratnoma" asari haqida to'liq ma'lumot berish va tahlil qilish, asarni o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarni umumlashtirish;

⁶ Санақулов У. Исследование языка памятника XV века «Мухокамат ул-лугатайн» Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1971; Насыров И. Лексика «Маджалис ан-нафис» Алишера Навои. Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1980; Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисанат-тайр» Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1982; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Ташкент, 1983; Умаров Э.А. «Бадое ал-лугат» и «Санглох» как лексикографические памятники и источники изучения староузбекского языка XVI-XVI вв. Дисс. ... д-ра филол.наук. – Ташкент, 1989; Умаров Э.А. Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов «Хазойин ул-маоний» Алишера Навои: Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Л., 1968. – 18 с.; Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари. – Ташкент, 1996. – 187 б.; Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Ташкент, 2000. – 58 б.; Аширбаев С. Структурно-семантические особенности простого предложения в прозаических произведениях Алишера Навои. Автореф. дисс. ... д-ра филол.наук. – Ташкент, 1990; Холманова З. "Бобурнома" лексикаси тадқиқи. Филол.фан.д-ри. ...дисс. – Ташкент, 2009. 325 б.; Ўрозбоев А. Оғахийнинг тарихий асарлари лексикаси. – Ташкент: Muharrir, 2013. – 140 б.; Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи. Филол. фан. д-ри. дисс. – Фарғона, 2021.

⁷ Рьѐ Ч. Catalogue of the Turkish Manuscripts in British Museum. Londra. 1988. – P. 276-280; [Catalogue of the Turkish manuscripts in the British museum : British Museum. Dept. of Oriental Printed Books and Manuscripts : Free Download, Borrow, and Streaming : Internet Archive](#); Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. Том пятнадцатый. 1902-1903. – СПб.: Типография Императорской Академии Наук, 1903. – С. 183-184, 186; Петров К.И. Очерки феодальных отношений у киргизов в XV-XVIII вв. – Фрунзе, 1961; Петров К.И. К истории движения киргизов на Тянь-Шань и их взаимоотношений с йортами в XIII-XV вв. – Фрунзе, 1961.

⁸ Муқминова Р.Г. Борьба за Мавераннахр между тимуридами и шейбанидами (К истории образования узбекского государства шейбанидов) Автореф. дисс. канд. ист. наук – Л., 1949. – 14 с.; Азимжонова С.А. К истории Ферганы второй половины XV в. – Ташкент, 1957. – 94 с.; Ахмедов Б.А. Государство кочевых узбеков. – М.: Наука, 1965. – 195 с.; Ибрагимов С.К. Материалы по истории казахских ханств XV-XVIII веков. Сост. С.К.Ибрагимов, Н.Н.Мингулов, К.А.Пищулина, В.П.Юдин. – Алма-Ата: Наука, 1969. – 651 с.; Бекмурадов С.Т. "Таварих-и гузида – Нусратнома" асари Марказий Осиё тарихи ҳақида маълумот берувчи манба сифатида. – Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022, August. Volume 2 | Issue 8. – 133-143 p.

⁹ Акромов А.М. "Таварих-и гузида - Нусрат-наме". Сочинение анонимного автора XVI века. Дисс. канд.филол.наук. – Ташкент, 1965. 176; Таварих-и гузида-Нусрат-наме. Исследование, критический текст, аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений кандидата филол. наук А.М.Акрамова. – Ташкент: Фан, 1967. – 630 с.

¹⁰ Халилов А.Л. "Нусратнома" асари тилининг морфологик қурилиши (Грамматик категориялар). Филол.фан.номз. дисс. – Ташкент, 1994. – 142 б.

manba leksikasining tarixiy-etimologik genezisini aniqlash hamda asarning qo‘lyozma nusxasini lotin yozuvida transliteratsiya qilish;

asardagi turkiy so‘zlar semantikasini yoritish, turkiy so‘zlarning qadimgi turkiy til va hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanish darajasini tahlil etish;

asardagi arabcha, forscha-tojikcha so‘zlar semantikasini yoritish, ularning eski turkiy til va hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanish darajasini belgilash;

leksik birliklarni mavzuiy guruhlariga ajratgan holda tadqiq etish orqali so‘zlar vazifasining tarixiy taraqqiyotini ochib berish va unda qo‘llangan so‘zlarning izohli lug‘atini tuzish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Tavorixi guzida. Nusratnoma” asarining O‘zRFA Abu Rayxon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida № 4347-inventar raqami ostida saqlanayotgan T1 nusxa tanlangan¹¹. Shuningdek, A.Akramovning faksimile nashridagi London va Peterburg nusxalaridan foydalanilgan¹².

Tadqiqotning predmetini “Tavorixi guzida. Nusratnoma” asari so‘z boyligining tarixiy-etimologik, semantik hamda shakl va ma’no munosabatlari asosidagi xususiyatlari tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tavsifiy, struktural tahlil, retrospektiv va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Izlanish asosan diaxron aspektda bo‘lib, zarur o‘rinlarda sinxron aspektga ham murojaat qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XVI asrning nodir tarixiy manbasi bo‘lgan “Tavorixi guzida. Nusratnoma” asarning yozilish tarixi, strukturasi, muallifi, nusxalari, adabiy-badiiy jihatlari yoritilib, obidaning lingvistik tadqiq muammolari aniqlangan;

asar leksikasining qadimgi turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili va hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasi bilan etimologik jihatdan o‘xshash hamda semantik jihatdan farqli jihatlari dalillangan;

leksemalar semantikasida sodir bo‘lgan ma’no kengayishi, ma’no torayishi, ma’noning o‘zgarishi hodisalari va leksemaning ma’no tabiatiga xos semantik siljishlar, asar so‘z boyligining mavzuiy tasnifida mavzu guruhlarining qo‘llanish doirasi isbotlangan;

manbadagi turkcha, arabcha, forscha-tojikcha so‘zlar etimologiyasi, semantikasi yoritilgan, XVI asr tili so‘z boyligida o‘z va o‘zlashgan qatlam leksik birliklarining so‘z o‘zlashtirish jarayonidagi til kontaktlari va ularning til tadriji bosqichlarida tutgan o‘rni ochib berilgan;

asar so‘z boyligidagi leksemalarni shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra tasniflash asnosida sinonimik, omonimik va antonimik paradigmalar, ularning tarixiy shakllanish asoslari, turli mavzuiy guruh doirasidagi leksemalarning sinonimik va antonimik qatorlariga xos paradigmatic munosabatlar, leksemalar doirasidagi metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik hodisalari misollar orqali asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

¹¹ ʻTavorixi guzida. Nusratnoma. Ushbu asar O‘zRFA Abu Rayxon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida № 4347-inventar raqami ostida saqlanayotgan T1 nusxa tanlangan.

¹² Таварих-и гузида-Нусрат-наме. Исследование, критический текст, аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений кандидата филол. наук А.М.Акрамова. – Ташкент: Фан, 1967.

til tarixi fanining leksikologiya sohasi uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, shuningdek, semasiologiya, terminologiya, leksikografiya, lingvopoetika bo'yicha yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

“O'zbek tili tarixi”, “Matnshunoslik”, “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi” fanlari bo'yicha yaratilgan, yaratilajak darslik va qo'llanmalar, hozirgi terminologik va o'quv lug'atlarning yanada mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

“Tavorixi guzida. Nusratnoma” asarining leksik xususiyatlari” nomli monografiya nashr qilingan;

“Tavorixi guzida. Nusratnoma” asaridagi so'zlarning izohli lug'ati tuzilgan; filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, magistrantlar, ilmiy tadqiqotchi va soha mutaxassislarining til tarixi, turkiy tillarning qiyosiy tahlili, etimologik izlanishlar, tarixiy leksikologiya, tarixiy terminologiya, so'z semantikasi tadqiqiga doir bilimlarni boyitishga amaliy jihatdan xizmat qilishi dalillangan;

asardagi so'zlarning o'ziga xos semantik xususiyatlarga ega ekanligini aniqlash va ularni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar uchun nazariy manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, xulosalarning lingvistik tahlil metodlari bilan asoslanganligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, mavzuning jahon tilshunosligining ustuvor ilmiy konsepsiyalari asosida o'rganilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “Tavorixi guzida. Nusratnoma” leksikasini lingvistik planda tahlil etish, shu asosda eski o'zbek adabiy tili so'z boyligining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganish va tarixiy leksikologiyaning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda ko'rinadi. Ishda tarixiy yozma manbalar leksikasini o'rganish mezonlari belgilandi. Dissertatsiyada keltirilgan fikrlar, xulosalar o'zbek tilining leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya va terminologiya sohalariga doir masalalarni yoritishda muhim omil bo'ladi. Tadqiqot natijalari darslik va qo'llanmalar tuzish, metodik ko'rsatma va tavsiyalar berishda nazariy manba vazifasini o'tashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati natijalarning “Tavorixi guzida. Nusratnoma”dagi leksik birliklarni o'rganish, muallifning so'z qo'llash mahoratini yoritish, leksik xususiyatlarni tahlil qilishda muhimligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan o'zbek tilining “XVI asr leksikasiga oid so'zlarning mukammal izohli lug'ati”ni tuzish uchun foydalanishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Tavorixi guzida. Nusratnoma” asarining leksik xususiyatlari tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

asar so'z boyligidagi leksemalarni shakl va ma'no munosabatiga ko'ra tasniflash asnosida sinonimik, omonimik va antonimik paradigmatlar, ularning tarixiy shakllanish asoslari, turli mavzuiy guruh doirasidagi leksemalarning sinonimik va antonimik qatorlariga xos paradigmatic munosabatlar, leksemalar doirasidagi metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik hodisalariga oid natija va xulosalardan 2021-2023-yillarda “Musiq va san'at o'quv muassasalari uchun

“Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi F3-2019081773-raqamli fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 2024-yil 20-iyundagi 1/04-103-son ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiya materiallari tizimli xulosalar chiqarishga yordam bergan, ulardan “O‘zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug‘ati”ning so‘zligini tuzishda, izohlarini asoslashda foydalanilgan;

manbadagi turkcha, arabcha, forsha-tojikcha so‘zlar etimologiyasi, semantikasi yoritilgan, XVI asr tili so‘z boyligida o‘z va o‘zlashgan qatlam leksik birliklarining so‘z o‘zlashtirish jarayonidagi til kontaktlari va ularning til tadriji bosqichlarida tutgan o‘rni xususidagi xulosa va natijalardan 2020-2021-yillarda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan “O‘zbek milliy raqs san’atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug‘atlar) to‘plamini yaratish” mavzusidagi IZ-2019081663-raqamli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 2024-yil 20-iyundagi 1/04-102-son ma’lumotnomasi). Natijada fundamental loyiha doirasida yaratilgan “O‘zbek milliy raqs terminlarining qisqacha o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha izohli lug‘ati” so‘zligining etimologiyasi, semantikasi, leksemalarning izohlari ilmiy jihatdan boyitilgan;

leksemalar semantikasida sodir bo‘lgan ma’no kengayishi, ma’no torayishi, ma’noning o‘zgarishi hodisalari va leksemaning ma’no tabiatiga xos semantik siljishlar, asar so‘z boyligining mavzuiy tasnifida mavzu guruhlarining qo‘llanish doiraga oid xulosa va natijalardan 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan №IL-662205561-raqamli “Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish (“Xazoyin ulmaoniy” kulliyotidagi g‘azallar asosida)” mavzusidagi amaliy loyihada samarali foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 1-iyuldagi 04/1-1713-son ma’lumotnomasi). Natijada Alisher Navoiyning asarlari tarkibidagi terminlar aniqlangan, ularning etimologik xususiyatlari, genetik asoslari izohlangan, ikki tilli lug‘at tuzishda amaliy yordam ko‘rsatilgan;

XVI asrning nodir tarixiy manbasi bo‘lgan “Tavorixi guzida. Nusratnoma” asarning yozilish tarixi, strukturasi, muallifi, nusxalari, adabiy-badiiy jihatlari yoritilib, obidaning lingvistik tadqiq muammolari belgilanganligiga oid natijalaridan 2023-2024-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O‘zbekiston» teleradiokanalining «Bedorlik», «Ijod zavqi», «Ta’lim va taraqqiyot», «Millat va ma’naviyat» eshittirishlari ssenariysini yozishda foydalanilgan va muallif bilan suhbatlar uyushtirilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O‘zbekiston teleradiokanali»ning 2024-yil 22-iyundagi 26-36-899-sonli ma’lumotnomasi). Natijada eshittirishlarning mazmuni boyitilgan, radiodasturlarda berilgan mazkur natijalar til tarixi fanining leksikologiya sohasi uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi, shuningdek, semasiologiya, terminologiya, leksikografiya, lingvopoetika bo‘yicha yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi, bir qancha fanlari bo‘yicha yaratiladigan darslik va qo‘llanmalarining, hozirgi terminologik, o‘quv lug‘atlarining yanada mukammallashuviga xizmat qilishida amaliy yordam berishi bilan alohida ta’kidlangan;

asar leksikasining qadimgi turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili va hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasi bilan etimologik jihatdan o‘xshash hamda semantik jihatdan farqli jihatlariga taalluqli xulosalardan aholi o‘rtasida milliy istiqlol g‘oyalarini targ‘ib qilish ishlarida, dissertatsiyasining asosini tashkil etuvchi “Tavorixi guzida. Nusratnoma” asari leksikasi” nomli monografiyasi va qator ilmiy maqolalaridan O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviyat targ‘ibot markazi Farg‘ona viloyati bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar: aholi va soha vakillari bilan uchrashuv, ochiq muloqot hamda ilmiy anjumanlarda qo‘llanma sifatida keng foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviyat targ‘ibot markazining 2025-yil 23-yanvardagi 03/01/19-80-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tadbirlarning mazmuni va ahamiyati ortgan, mazmun doirasi kengaygan;

XVI asrning nodir tarixiy manbasi bo‘lgan “Tavorixi guzida. Nusratnoma” asarning yozilish tarixi, strukturasi, muallifi, nusxalari, adabiy-badiiy jihatlarini yoritilib, obidaning lingvistik tadqiq muammolari xususidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan viloyatlar bo‘ylab tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ssenariylarini tayyorlashda, shuningdek, madaniy-ma’rifiy tadbirlar: aholi va soha vakillari bilan uchrashuv, ochiq muloqot hamda ilmiy anjumanlarda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining 2025-yil 22-yanvardagi 02-02/115-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tadbirlarning mazmuni va ahamiyati ortgan. Shuningdek, dissertatsiya ilmiy natijalari asosidagi ilmiy yangiliklardan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi “Hujjatlar va qo‘lyozmalar” fondini yangi ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 31 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola (10 tasi respublika, 6 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, 2 ta ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi – 256 sahifa.

Tadqiqotga 2 ta ilova qilingan: 1. “Tavorixi guzida. Nusratnoma” asarining transliteratsiyasi – 168 bet.

2. Asardagi so‘zlarning izohli lug‘ati – 262 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o‘rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rin olgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Tavorixi guzida. Nusratnoma**” asari va uning o‘rganilish tarixi” deb nomlangan va uning birinchi faslida “**Tavorixi guzida. Nusratnoma**” tarixiy, adabiy-badiiy manba sifatida” o‘rganilgan.

Kishilik jamiyatining har bir bosqichini o‘rganishda o‘sha davr olimlari yozib qoldirgan asar muhim tarixiy ahamiyatga ega sanaladi. Ma’lumki, o‘zbek tili nihoyatda uzoq tarixga ega bo‘lib, uning taraqqiyotida ayrim lisoniy xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiluvchi bir qancha o‘zgarishlar mavjud. Modomiki, o‘zbek tilining ana shu bosqichlaridan XV-XVI asrlardagi rivojlanish dunyo olimlari tomonidan “oltin davr” deb tan olingan ekan¹³, unga oid har bir asar tilini atroflicha tahlil va tadqiq etish hamda yoritishga zaruriyat deb qarash lozim.

O‘zbek tilining mukammal tarixiy fonetikasi, leksikasi, grammatikasini yaratish o‘zbek tili tarixiga oid yozuv yodgorliklari tilining o‘rganilishi bilan bog‘liq. Shunday manbalardan biri “Tavorixi guzida. Nusratnoma” asaridir. Asar yaratilgan davr haqida so‘z ketganda, Shayboniylar davrida fan va madaniyatning sezilarli darajada rivojlanganligini ta’kidlab o‘tish zarur. Sulola hukmdorlari orasida ko‘zga ko‘ringan olimlarning bo‘lgani bunga dalil bo‘la oladi. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgan va Shayboniylar sulolasiga asos solgan Muhammad Shayboniyxonga atab, uning harbiy yurishlari va fathlarini bayon qilish maqsadida bir qator tarixiy asarlar yaratilgan. Bularga Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Mulla Shodiyning “Fathnomai xoniy”, Binoiyning “Shayboniynoma”, “Mehmonnomayi Buxoro” asarini kiritish mumkin. Ularning bir qismi nasrda, boshqalari nazmda eski o‘zbek va fors tillarida bitilgan. Shuningdek, bu davrda tarix fanining rivoji sezilarli bo‘lganligi bilan ahamiyatli, ko‘plab yozma manbalarning aynan shu paytda yaratilishi fikrimiz dalilidir. Shayboniyxon buyrug‘i bilan Kamoliddin Binoiy, Mulla Shodiy, Muhammad Solih, Fazlulloh ibn Ro‘zbekxonlar o‘z asarini yozib, xonga bag‘ishlaganlar. Bundan tashqari, ushbu ro‘yxatga Abdulla ibn Muhammad ibn Ali Nasrullohning “Zubdat ul-ozor” tarixiy asarini, Tanish Buxoriyning “Abdullohnoma” (“Sharafnomai shohiy”) va muallifi noma’lum “Tavorixi guzida. Nusratnoma¹⁴” asarini kiritish mumkin. Asarning asosiy nusxalaridan biri (A) Britaniya muzeyida № OR-3222¹⁵, boshqasi (B) esa Rossiya FA sharq qo‘lyozmalari institutida № V-745¹⁶ raqami ostida saqlanadi

TN eski o‘zbek adabiy tilida yozilgan hamda Chingizxon, Amir Temur va asosan, Shayboniyxon tarixiga bag‘ishlangan tarixiy manbadir. Asar muallifi xususida manbashunoslar tomonidan turli fikrlar ilgari surilgan. Ushbu manba Markaziy Osiyo va unga chegaradosh elatlar, xalqlar tarixini bayon etuvchi qimmatli ma’naviy meros sanaladi. Ushbu tarixiy obida basmala, muallif so‘zboshisi, o‘g‘uz, turk, mo‘g‘ul qabilalari tarixi, Chingizxon va uning avlodlari tarixi, Amir Temur va Temuriylar tarixi hamda Shayboniy tarixini o‘z ichiga oladi.

“Tanlangan tarixlar – Zafar kitobi” ma’nosini beruvchi bu asar XV-XVI asrlardagi o‘zbek va boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, etnografiyasi, geografiyasi, san’ati, tili va adabiyotiga oid qimmatli manbadir.

¹³ Самойлович А.Н. К истории литературного среднеазиатско-турецкого языка. // Мир-Али-Шир. Сборник к пятисоплетию со дня рождения. – Л., 1928.

¹⁴ Keyingi o‘rinlarda TN deb beriladi.

¹⁵ Rieu Ch. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum. – London, 1888. – P. 276-280; Catalogue of the Turkish manuscripts in the British museum : British Museum. Dept. of Oriental Printed Books and Manuscripts : Free Download, Borrow, and Streaming : Internet Archive.

¹⁶ Описание тюркских рукописей Института народов Азии (ОТРИНА) / АН, Институт востоковедения. – М.: Наука, 1965. – Опись 75; c_dmitrieva_muginov_muratov_1_1965.pdf (orientalstudies.ru).

Ushbu asar o'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotini kuzatish, shakllanish bosqichlarini o'rganish, rivojlanishdagi o'zgarishlarni tadqiq etishda filolog olimlar uchun; mo'g'ullar, Temuriylar, ayniqsa, Shayboniylar davrini o'rganishda filologlar, tarixshunos, manbashunoslar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, asar tarkibiy va kompozitsion jihatdan mukammal bo'lib, keyinchalik shu mavzudagi boshqa tarixiy manbalarni yaratishda namuna bo'lib xizmat qilgan.

Matnning mazmunan qorishiqligi, ya'ni ham tarjima, ham to'plam, ham ijodiy yondashish hamda muallif sifatidagi mustaqil bayon kabi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi asarni yozgan muallifga qaysi sifatni berish kerakligi haqidagi masalani yanada qiyinlashtiradi. Sarlavhadagi ifodalardan shuni aytish mumkinki, muallif shunchaki tarjimon emas. Asarda aniq ashyoviy ma'lumotlarning borligi, uning Shaboniyxonning buyrug'i bilan bitilgani, muhim sanalardan tashkil topgani, miniatyuralarning keltirilgani uning saroy yaqin atrofida yoki saroy ichida yozilganligini ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotlar asosida asarni saroyda saqlanayotgan tarixiy matnlardan foydalanish huquqiga ega, tarixni biladigan kishilardan tuzilgan jamoaga matnni aytib yozdirgan bir olim bo'lishi mumkin, degan fikrga kelinadi.

Asar tarkibiy jihatdan uch qism (fasl)dan iborat bo'lib, uning birinchi bobi Nuh payg'ambar va Yofasdan tortib, turklarning qadimgi afsonaviy ajdodlari O'g'uzxon, Chingizxonning shajarasi Alanquvodan to Muhammad Solihga qadar bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Birinchi qismda yana O'g'uzxon va qadimgi turklar, Chingizxon hamda uning Mo'g'uliston, Dashti qipchoq, Movarounnahr va Eronda hukmronlik qilgan avlodlari tarixi, ikkinchi qismda Temur va Temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan. O'g'uzxon to'g'risida so'z ketgan qismda Kunxon, Oyxon, Yulduzxon, Ko'kxon, Chingizxon va Elxon urushlari ham qisqacha bayon etilgan. Bu ma'lumotlardan so'ng O'g'uzxonning urug'lari, chunonchi, uyg'ur, qo'ng'iroq, qipchoq, qarluq, kalach, qanglilar haqida muhim ma'lumotlar berilgan. So'ngra O'g'uzxonning o'g'illari haqidagi sharhlar bayon etiladi. Asar davomida O'g'uz turklari tarixi, mo'g'ul urug'lari, Chingizxon va uning avlodlari, Amir Temur va uning To'xtamish bilan kurashi haqida so'z boradi.

Asarning ikkinchi "Nusratnoma" qismi muhim ilmiy ahamiyatga ega. Unda Shayboniylar cherigining tuzilishi, etnik tarkibi, shuningdek, ko'chmanchilarning Qorako'l, Hisor, Chag'oniyon, O'ratepa hamda Xo'jand viloyatlarida olib borgan qattiq siyosati haqida qimmatli ma'lumotlar aks etgan. Asarning eng ishonchli manbalar sirasiga kirishiga yana bir sabab unda sodir bo'lgan voqealarning vaqti aniq ko'rsatilganligidadir. Bundan tashqari, Shayboniyxon qo'shinlari tarafidan Farg'ona viloyatining bosib olinishi faqat TN asaridagina to'g'ri va to'liq yoritilgan. Asar boshlanishida munshiy (kotib) Kamoliddin, oxiri esa Shayboniyxonning amri bilan Muhammad Solih tomonidan shikasta xatida tahrirlangani haqida so'z yuritilgan. Asar hoshiyalari ham shikasta xatida yozilgan. Obidaning asl matni esa boshidan oxirigacha to'liq nastaliq yozuvida bitilgan.

Uchinchi faslda Abulxayrxon o'limidan keyin Dashti Qipchoqdagi feodal munosabatlar, ichki nizolar, Shayboniyxonning yoshlik chog'lari hikoyalari, og'asi Mahmud Sulton va boshqa ba'zi tarixiy shaxslar haqida, Farg'onaga bo'lgan yurishlar to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, Shayboniyxonning bobosi Abulxayrxonning ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga qo'shilish tarixi tasvirlangan. Bunda no'g'oy biysi Vaqqosning ishtiroki, ichki bo'linish, mang'itlar va

qozoqlarning Abulxayrxon avlodlariga qarshi kurashi, Muhammad Shayboniyning no'g'oy biyi Muso bilan muvaffaqiyatsiz ittifoqi voqeasi bayon etilgan. Ushbu qismda Shayboniyxonning Movarounnahrni zabt etganidan keyingi davrlari alohida tasvirlangan. Asar Shayboniyxonning 1504-1505-yillarda Andijonni bosib olish voqealari bilan yakunlanadi.

Manbaning "Nusratnoma" qismida she'rlar miqdori ko'pligi kuzatiladi. Tabiiyki, bunda Shayboniyxonning adabiyotga, she'riyatga bo'lgan qiziqishini e'tirof etish darkor. She'rlar asosan sarkardalar, amaldorlar (Chig'atoy beklari, Jonibek Sulton, Hamza Sulton va h.), urug'lar to'g'risida. Ushbu nazmiy parchalarning kiritilishi asarning adabiy qiymatini yanada oshiradi. She'rlar g'azal, masnaviy, qasida kabi janrlarda bo'lib, matnning boshlanishida mumtoz asar basmalasidagi kabi 28 qatordan iborat Allohga hamd va shukronalikni ifoda etgan misralar mavjud. Asosiy nusxalarda hamddan so'ng Shayboniyxonni madh etuvchi 62 misradan iborat qasida joy olgan. Turkiy she'rlar jami 593, forsiy she'rlar esa 24 misrani tashkil etadi.

TN XVI yuzyillikda bitilgan asarlardan biri bo'lganligi, uning muallifi o'zbek adabiyoti va adabiy tili rivojiga ulkan ulush qo'shgan Alisher Navoiy ijodiy an'analarining davomchisi sifatida gavdalanganligini alohida ta'kidlash lozim. TNning Shayboniyxonning buyrug'i asosida eski o'zbek tilida bitilgani, matnning hammaga tushunarli, sodda tilda yozilganligi o'sha davrda o'zbek adabiy tilining tobora ustunlik kasb etganidan dalolat beradi. Fikrimizcha, ushbu manbani keng ilmiy foydalanishga kiritish, matnni qayta tiklash, uni iloji boricha muallif nusxasiga yaqinlashtirish, transliteratsiyasini amalga oshirishga ehtijoz seziladi.

Bobning ikkinchi faslida **"Tavorixi guzida. Nusratnoma" asarini o'rganish yuzasidan xorijda va O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar**" o'rganilgan bo'lib, faslda asar yuzasidan olib borilgan izlanishlar ilmiy maqola hamda dissertatsiyalar misolida asoslangan.

TNdagi Shayboniyxon tarixi bilan bog'liq ilk ma'lumot Ch.Ryo asarida keltiriladi¹⁷. Bevosita asar haqida qisqa shakldagi ilk qaydlar esa V.Bartoldning 1902-yilda Turkiston safari haqida tayyorlangan ma'ruzasida, shuningdek, A.Semenov va K.Petrovlarning izlanishlari orasida uchraydi¹⁸. 1815-yilda Buxoroda kitobning qisqartirilgan variantini so'zboshida o'zini qo'ng'iroq urug'idan bo'lgan o'zbekman, deb tanitgan Allamurod Annaboy o'g'li ko'chirib yozgan. Ushbu nusxaning 1849-yilda I.N.Beryozin tomonidan turkiy tilda nashr etilgani haqida ilk bor V.V.Bartold Amudaryo tarixi masalasiga doir tadqiqotlarida aytib o'tadi¹⁹. Shuningdek, ushbu qisqartirilgan nusxa haqida K.Zaleman ham o'z izlanishlarida qisman fikr bildirib o'tgan²⁰. "O'g'uz, Alanquva va Shayboniyxoma" deb nomlangan ushbu qisqartirilgan nusxa boshqa bizga ma'lum nusxalari orasida eng oldin tuzilgani sanaladi.

¹⁷ Ръё Ч. Catalogue of the Turkish Manuscripts in British Museum. Londra. 1988. – P. 276-280; Catalogue of the Turkish manuscripts in the British museum : British Museum. Dept. of Oriental Printed Books and Manuscripts : Free Download, Borrow, and Streaming : Internet Archive

¹⁸ Петров К.И. Очерки феодальных отношений у киргизов в XV-XVIII вв. – Фрунзе, 1961; Петров К.И. К истории движения киргизов на Тянь-Шань и их взаимоотношений с йортами в XIII-XV вв. – Фрунзе, 1961.

¹⁹ Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. Том пятнадцатый. 1902-1903. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии Наук, 1903. – С. 183-184, 186.

²⁰ <https://iranicaonline.org/articles/salemann-carl-hermann>

R.G.Muqminova, S.A.Azimjonova, B.A.Ahmedov, S.K.Ibragimov, S.T.Bekmuradov hamda A.M.Akramovlarning izlanishlari orqali asar haqida ma'lum ma'lumotlarga ega bo'lamiz²¹. A.M.Akramov asarni bugungi kunda to'liq hisoblangan Londonning Britaniya muzeyida saqlanayotgan nusxasidan foydalangan holda matnshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etgan. Asardan ayrim parchalar 1969-yili Olma-Otada V.P.Yudin tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va nashr etilgan²². V.V.Stasov Britaniya muzeyida saqlanayotgan TN asaridagi illyustratsiya nusxalarini tadqiq etdi, asar 1902-yilda nashr etilgan bo'lib, "Vizantiya, bulgor, rus, eski o'zbek va forsiy qo'lyozmalar miniatyuralari" deb nomlangan²³. Rossiya FA Sharq qo'lyozmalari institutida saqlanayotgan №V-745 raqamli nusxani P.Lerx o'z to'plamidan taqdim etgan²⁴. Uning 1858-yilda Buxoro va Xivaga sayohat qilishidan maqsadi sharq qo'lyozmalarini izlab topish va to'plash bo'lgan. Buxoroda u TN asari nusxasini qo'lga kiritib, 1859-yilda uni Rossiya Fanlar akademiyasi Osiyo muzeyiga topshirgan.

O'zbek tilshunoslaridan B.Ahmedov tarixga oid izlanishlarida "Fatxnoma", "Shayboniynoma", "Mehmonnomai Buxoro", "Tarixi Muqimxoniy", "Ubaydullanoma", "Tarixi Abulfayzxoniy" asari qatorida TN haqida ham qisman to'xtalib, XVI-XVIII asrlardagi O'rta Osiyo tarixiga oid qimmatli ma'lumotlarni keltiradi²⁵. O'tgan asrning 60-yillarida matnshunoslik tadqiqotlari asarning matn va kompozitsiya tarixini, uning barcha mavjud bo'lgan nusxa va qisqartirilgan variantlarini o'rganish natijalari TNning asl qo'lyozma nusxasi bizgacha yetib kelmaganligini ko'rsatdi. A.Akramovning asar qo'lyozmalarini ilmiy istifodaga kiritgani ahamiyatli bo'lib, u amalga oshirgan tanqidiy matn muallifnikiga bir oz yaqinligini e'tirof etish mumkin. U asarning barcha mavjud nusxalarini o'rganib, tayyorlagan qiyosiy matni asosida 1965-yilda nomzodlik ishini himoya qilib²⁶, 1967-yilda asarning faksimilesini nashr etdi²⁷. Bu nodir asar mukammal nusxasining e'lon qilinishi XV-XVI asrlar O'rta Osiyoda hukm surgan siyosiy-ijtimoiy vaziyatni, davr tilini o'rganish va uni yoritishda ham ulkan ahamiyat kasb etadi. 1994-yilda ushbu asarni A.L.Xalilov o'z nomzodlik dissertatsiyasi uchun obyekt qilib oldi²⁸. Ish ikki bobdan iborat bo'lib, birinchi bobda asardagi ot kategoriyalari, ikkinchi bobda fe'lga xos grammatik kategoriyalarning ifodalanishi tahlil qilingan.

Keyingi yillarda asarni o'rganishga turkiyalik olimlar ham katta qiziqish bildirishmoqda. Ular asarni turli aspektlarda tadqiq etdilar. Masalan, Harun Kaya

²¹ Муқминова Р.Г. Борьба за Мавераннахр между тимуридами и шейбанидами (К истории образования узбекского государства шейбанидов) Автореф. дисс. канд. ист. наук – Л., 1949; Азимжонова С.А. К истории Ферганы второй половины XV в. – Ташкент, 1957; Ахмедов Б.А. Государство кочевых узбеков. – М.: Наука, 1965; Ибрагимов С.К. Материалы по истории казахских ханств XV-XVII веков. / Сост. С.К.Ибрагимов, Н.Н.Мингулов, К.А.Пищулина, В.П.Юдин. – Алма-Ата: Наука, 1969; Бекмуратов С.Т. "Таварих-и гузида – Нусратнома" асари Марказий Осиё тарихи ҳақида маълумот берувчи манба сифатида. – Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022, August. Volume 2 | Issue 8.

²² Ибрагимов С.К. Материалы по истории казахских ханств XV-XVII веков (Извлечения из персидских и тюркских сочинений) / Сост. С.К.Ибрагимов, Н.Н.Мингулов, К.А.Пищулина, В.П.Юдин. – Алма-Ата: Наука, 1969; https://books.google.co.uz/books?id=dIAGAwAAQBAJ&printsec=frontcover&source=gbs_atb&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false; <https://kazneb.kz/kk/bookView/view?brId=1180118>

²³ Васильева О.В., Ястребова О.М. XV-XVII асрлар Мовароуннахр китобат санъати (Россия миллий кутубхонаси тўпламидан, Санкт-Петербург, Россия). – Тошкент: Silk road media, 2020. – Б. 24-25.

²⁴ Лерх П. Археологическая поездка в Туркестанский край в 1867 году. – Санкт-Петербург, 1870. – С. 20-21; https://archive.org/details/1867_20220416/page/39/mode/2up

²⁵ Ахмедов Б. Ўрта Осиёнинг XV-XVIII асрлар тарихий-жўғрофий адабиёти (ёзма ёдгорликлар). – Тошкент, 1985.

²⁶ Акромов А.М. "Таварих-и гузида - Нусрат-наме". Сочинение анонимного автора XVI века. Дисс. канд.филол.наук. – Тошкент, 1965.

²⁷ Таварих-и гузида-Нусрат-наме. Исследование, критический текст, аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений кандидата филол. наук А.М.Акромова. – Тошкент: Фан, 1967.

²⁸ Халилов А.Л. "Нусратнома" асари тилининг морфологик қурилиши (Грамматик категориялар). Филол.фан.номз. дисс. – Тошкент, 1994.

asarni manbashunoslik, tarixshunoslik nuqtai nazaridan o'rgangan²⁹. D.Ochirpurev asarga turk-mo'g'ul tarixining yoritilishi nuqtai nazaridan baho bergan va shu nuqtada turib tadqiqot olib borgan³⁰. A.Umarov 2022-yilda TN asari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini yoqladi³¹.

Dissertatsiyaning **“Tavorixi guzida. Nusratnoma” asari leksikasi qatlamlari va mavzuiy guruhlari** deb nomlangan ikkinchi bob mazmuni to'rtta faslda bayon qilingan. Birinchi fasl **“O'z qatlam leksikasi”** tahliliga bag'ishlangan bo'lib, TN so'z boyligidagi turkiy qatlam muallif fikri, tasavvuri, dunyoqarashi, qiziqishlari, orzu-armonlarini aks ettirishga xizmat qilgan. Asarda qo'llangan o'z qatlam badiiy jozibadorligi, ma'no bo'yoqdorligi, uslubiy imkoniyatlarga boyligi bilan to'liq namoyon bo'lgan. Asar leksikasining umumiy miqdori (takrorlar bilan) 38116 so'zdan iborat. Manbada qo'llangan (takrorlarsiz) 5717 ta so'zning 2803 tasi (49%) turkcha, 1447 tasi (25%) arabcha, 1389 tasi (24%) forscha-tojikcha; qolgan 78 tasi (2%) boshqa tillardan o'zlashgan, jumladan: 10 tasi qadimgi yahudiycha, 9 tasi yunoncha, 52 tasi mo'g'ulcha, 1 tasi sanskritcha, 2 tasi urducha, 3 tasi so'g'dcha, 1 tasi xitoycha ekanligi aniqlandi. 5717 so'zdan 1086 tasi asarning yuzdan ortiq o'rnida kuzatildi. 1372 ta so'z 25 dan ortiq o'rnida, 794 ta so'z bir martadan uchradi. Qolgan so'zlar 3-25 martagacha bo'lgan miqdor oralig'ida qo'llangan.

Izohli lug'at ilovasida 5717 ta so'zning 4130 tasi keltirilgan. Shuningdek, ilovada 2119 ta shaxs nomlari, 347 ta joy nomlari, 214 ta urug' nomlari izohlangan. Lingvostatistik tahlil asarda qo'llangan so'zlarning asosiy qismi tub turkiy qatlam hamda arabcha va forscha-tojikcha o'zlashmalardan tashkil topganligini ko'rsatdi.

O'zbek tili o'z qatlam leksikasining kam o'rganilganligi manbalarda qayd etilgan bo'lsa ham³², keyingi yillarda bu borada bir qator tadqiqotlar olib borildi³³. Obidada o'zbek tilining qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tili davridagi leksik xususiyatlari aks etgan. Manbada ishlatilgan turkiy so'zlarning asosiy qismi hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanishda davom etmoqda.

Asar tilida aks etgan asl turkiy leksika ikki jihatdan yoritildi: **1. Turkiy leksemalarning qadimgi turkiy tilga munosabati.** Qadimgi turkiy til davri turkiy tillarning umumtaraqqiyot bosqichiga xos xususiyatlarning to'laligicha namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu davr tiliga oid tadqiqotlarda turkiy tillarning fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik sathlariga xos umumiy jihatlarning kuzatilishi qayd etilgan³⁴.

Qadimgi turkiy tilga oid xususiyatlarning hozirgi turkiy tillarda kuzatilishi tadqiqotlarda yoritilgan³⁵. Turk xoqonligi davrida qo'llangan so'z boyligining ulkan

²⁹ Harun K. Tevārīh-i gūzīde Nusret-nāme (giriş-metin-notlar-dizin-tipkibasim). Doktora Tezi. – Ankara, 2019.

³⁰ Ochirpurev D. Tevārīh-i Gūzīde-Nusret-nāme'nin Türk-Moğol Tarihi Açısından Değerlendirilmesi. Basılmamış Doktora Tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Ankara, 2021.

³¹ Umarov A. “Tevārīh-i gūzīde Nuşret-nāme” hakkında bir inceleme. Doktora Tezi. – İzmir, 2022.

³² Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 4.

³³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг туркий қатлами. – Тошкент, 2000; Содиқов Қ. XI-XV аср уйғур ёзуви туркий ёдгорликларнинг график-фонетик хусусиятлари: Филол.фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1992; Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилининг юзага келиши ва тикланиши. –Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006; Абдушукуров Б. «Киссаси Рабғузий» лексикаси. – Тошкент: Академия, 2008; Миртожиев М. Туркий туб сўзлар тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2017.

³⁴ Батманов И.А. Язык енисейских памятников древнетюркской письменности. – Фрунзе, 1959; Насилов В.М. Язык орхона-енисейских памятников. – М.,1960; Раджабов А.А. Язык орхона-енисейских памятников древнетюркской письменности: Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Баку, 1967; Маматкулов М. Аналитический способ словообразования в языке древнетюркских памятников: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1973; Аманжолов А.С. Материалы и исследования по истории древнетюркской письменности: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Алма-Ата, 1975.

³⁵ Аширалиев К. Древнетюркские элементы в современных тюркских языках. На материале орхона-енисейских памятников: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1969; Базарова Д.Х., Шарипова К.А. Развитие лексики тюркских языков Средней Азии и Казахстана. – Ташкент: Фан, 1990.

qismi hozirgi turkiy tillarda iste'molda qolmoqda³⁶. E.Begmatov «Qadimgi turkiy lug'at»ga tayangan holda qadimgi turkiy tilga xos 2500 dan ortiq leksemaning hozirgi o'zbek adabiy tilida ishlatilishini ta'kidlaydi. Bu so'zlar turli yo'nalishdagi tushuncha ifodalari bo'lib, yigirmaga yaqin leksik-semantik guruhga mansub³⁷. Qadimgi turkiy til davriga xos ijtimoiy-siyosiy hayotning turli sohalariga oid tushunchalarni ifodalovchi leksemalar hozirgi turkiy tillarda u yoki bu darajada qo'llanadi³⁸.

XV asrning leksik xususiyatlari aks etgan nomalarda qadimgi turkiy tilga mansub bir qator leksemalarning qo'llangani kuzatiladi³⁹. Alisher Navoiy asarlarida 1400 ga yaqin qadimgi va eski turkiy til so'zlari qo'llangan⁴⁰. Qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o'zbek tili harbiy leksikasining semantik-funksional, tarixiy-etimologik, struktur-grammatik tahlili ko'pgina tushunchalar XIV-XVI asrda arabcha, forscha-tojikcha, ayniqsa, mo'g'ulcha o'zlashmalar bilan ifodalana boshlaganini⁴¹ ko'rsatsa-da, eski o'zbek adabiy tili leksikasining asosini qadimgi turkiy so'zlar tashkil etgan. XI-XIV asrlarda yaratilgan qo'lyozma manbalar tilida iste'molda bo'lgan 700 ga yaqin ijtimoiy-siyosiy terminlarning 640 dan ortig'i Navoiy asarida kuzatilishi ta'kidlangan⁴². Eski turkiy til olmoshlari ayrim fonetik o'zgarishlar bilan to'la holda eski o'zbek adabiy tilida keng qo'llangan⁴³. Eski o'zbek tili manbalariga doir tadqiqotlar bu davr so'z boyligi asosini turkiy so'zlar tashkil etishini ko'rsatadi. Qadimgi turkiy til leksemalari eski o'zbek adabiy tili davrida, asosan, o'zgarishsiz, ayrimlari fonetik yoki semantik o'zgarishlar bilan qo'llangan⁴⁴.

TN matnida qadimgi turkiy til davrida keng iste'molda bo'lgan bir qancha umumturkiy leksemalar ishlatilgan. Eski o'zbek adabiy tilida keng qo'llangan qadimgi turkiy so'zlarning muayyan qismi biz o'rganayotgan obida matnida aks etgan: a) *eski o'zbek adabiy tilida qadimgi turkiy til davriga xos ma'nolarda qo'llangan leksemalar*. XV-XVI asr eski o'zbek adabiy tilida ma'nosini aynan saqlab qolgan qadimgi turkiy leksemalar mazmun-mohiyatan ham narsa-predmetni atovchi, belgi-xususiyat, holat, xarakterni ifodalovchi, son-miqdorni ko'rsatuvchi, ham asosiy so'z turkumlarining o'zaro munosabatga kirishuvida yordamchi vazifasini o'taydigan leksik birliklarni⁴⁵ o'z ichiga oladi.

Harakat-holat, faoliyatni bildiruvchi leksemalar (*yavu* = «yaqinlashmoq, yaqin kelmoq» (ANATIL,I,553) (DTS,249), *yügürt* = «yugurtirmoq, choptirmoq» (ANATIL,III,578) (DTS,284), *qav* = «quvmoq, haydamoq» (*qavlamayliq, quvmaq* ANATIL,IV,58) (DTS,461), *änlä* = «tushunmoq, fahmlamoq» (DTS,47); narsa-

³⁶ Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркской письменности VII века. – Алма-Ата, 1971.

³⁷ Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 65–73.

³⁸ Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 89–90.

³⁹ Жумаев А. XV аср ўзбек номаларида қадимги туркий сўзларнинг қўлланилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1991. – №5. – Б. 47–49.

⁴⁰ Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи (структур-грамматик, функционал-семантик аспектларда): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007.

⁴¹ Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 7–84.

⁴² Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991; Дадабаев Х. Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати // Алишер Навоий туғилганининг 650 йиллигига бағишланган илмий конференция материаллари. – Тошкент, 1991. – Б. 68–70.

⁴³ Юсуфов Б. Местоимения в староузбекском литературном языке (XV-XVI вв): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988. – С. 14–19.

⁴⁴ Насыров И. Лексика «Мажалис ан-нафаис» Алишера Навои: Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1980. – С. 5.

⁴⁵ Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи. (структур-грамматик, функционал-семантик аспектларда): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б.15.

buyum va hodisa nomlarining aksariyati semantik o'zgarishlarsiz qo'llangan (*yumurtqa* = «tuxum» (ANATIL,III,584) (DTS,280): *ul yumurtqalarni qoyar quş uçti...*, *künäs* = «quyosh» (ANATIL,II,138) (DTS,327): *künäsgä saldurdi, bürünçäk* = «yuzga tutiladigan ipak parda» (ANATIL,I,338), *kozgü* = «oyna, ko'zgu» (ANATIL,II,148) (DTS,321): *Bir kun öz yuzin közgüde körüb, söñäk* = «suyak, ustixon» (ANATIL,III,141) (DTS,511): *Va söñäkin naql qilib*; tabiat hodisasini ifodalovchi *yamyur* leksemasi qadimgi turkiy tilda *yaymur // yamyur* (DTS,225) fonetik variantlarda qo'llangan: *O'g'uzxon o'z viloyatig'a yondi, ersa yo'lda ulug' tog'g'a yetdi va ulug' qor yaqdi va necha uyluklar yamg'ur, qordin toqatsiz bo'lub yondilar* (22b) Bu derivat qadimgi turkiy tilda «osmondan yog'in shaklida tushib turmoq» ma'nosini anglatgan *yay* = fe'lidan (MK,III,68; DTS,223) *-mur* qo'shimchasi bilan yasalgan (O'TEL,I,167) va h.k.

b) *semantik o'zgarishlar bilan qo'llangan leksemalar*. So'zlar ma'no tarkibidagi o'zgarishlar xarakteriga ko'ra uch xil bo'ladi: semantik strukturasi torayish yuz bergan, semantik strukturasi kengayish sodir bo'lgan hamda yangi ma'no kasb etgan so'zlar. Insoniyat ongi va tafakkuridagi o'zgarishlar oqibatda tildagi so'zlarning shakl va ma'nolaridagi siljish va o'zgarishlarga olib keladiki, ular turli ko'rinish va darajalarda bo'lishi mumkin. So'zlarning eskirish va unutilish darajalari ham turlicha bo'ladi. Ba'zi so'zlar umuman ishlatilmay qoladi, boshqalari onda-sonda qo'llanadi. Xususan, qadimgi turkiy tilda qo'llangan bir qator leksemalarning semantik strukturasi ham yuqoridagi hodisalarni kuzatish mumkin. Masalan, ma'no torayishi yuz berganda: leksemaning semantik xususiylashish, differensiyalashish, torayish, ya'ni muayyan semalarning iste'moldan chiqish jarayonini asar matnida ham kuzatish mumkin. *Bilig* yasamasi TN asari tilida bilim, ilm, aql ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan bo'lib, so'zning qadimgi turkiy tildagi «ehtiyotkorlik, keyinini o'ylab ish tutish» (DTS,100) ma'nosi kuzatilmaydi: ... *ko'ksunda maning biligim va soqinchim taqi o'qush ucharimda maning qanotim bo'lg'il teb aytti* (13b)

Manbada qo'llangan qadimgi turkiy tilga xos ayrim so'zlarning ma'no tarkibida yangi ma'nolar shakllangan bo'lib, bu jarayon lug'aviy ma'no taraqqiyoti asosida yuz bergan. Semantik strukturaning o'zgarishini kuzatishda leksik ma'noning yo'q bo'lishi emas, balki yangi ma'noning yuzaga kelishi va u bilan aloqador masalalarni oydinlashtirish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi⁴⁶. Shu nuqtai nazardan TN matnida qadimgi turkiy tilga xos ayrim leksemalarning ma'no kengayish hodisasiga uchraganini kuzatish mumkin. Masalan, *üzät* so'zi qadimgi turkiy tildagi «cho'zmoq» ma'nosini anglatgan *uza* fe'lidan (DTS,620) *-t* orttirma nisbat qo'shimchasi bilan hosil qilingan (O'TEL,381) bo'lib, «cho'zmoq, tortmoq», «sustkashlik qilmoq» (DTS,620) ma'nolarida qo'llangan. TN matnida ushbu yasama o'z ma'nosini biroz kengaytirgan holda quyidagi ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan: 1) «cho'zmoq, yo'naltirmoq»: *anga bir kuron bodyon berib ani uzatdi* (109b); 2) «qizni uzatmoq, turmushga bermoq»: *Samarqand uzatib erkan turur* (108b); 3) «jo'natmoq, kuzatmoq»: *Xon taqi yana boshidin ahd qilib yaxshi siylab uzatib turur* (58b)

2. Turkiy qatlamning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati. TN tilidagi turkiy qatlam hozirgi o'zbek adabiy tilidagi iste'mol darajasiga ko'ra quyidagicha

⁴⁶ Шоабдурахмонов Ш., Аскарлова М., Ҳожиев А., Расулов Н., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 107–108.

ajratildi: hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanayotgan so'zlar; hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanishdan qolgan so'zlar.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanayotgan turkiy qatlam quyidagicha tasniflandi: 1. *Semantik jihatdan o'zgarishsiz qo'llanayotgan leksemalar* eski o'zbek adabiy tili davriga xos ma'nolarni ifodalaydi. Bular: harakat-holat bildiruvchi: *ber=, ye=, de=, kel=, atlan=, sev=*; belgi-xususiyat anglatuvchi *aq, kök, yaxši, yaman*; narsa-buyum nomlari: *ip, otun, egär, taray* va h.k.; ayrim shaxs otlari: *temürçi, elçi, qoyçi, baliyçi, suvçi*; hayvon nomlari (zoonimlar): *it, yilan, at, tevä* va h.k.; olmoshlar: *men, sen, biz, siz, andin* va h.k.;

Asardagi *tut=, bo'l=, qo'y=* kabi fe'llarning qadimgi turkiy tildagi qo'llanish holatlari va ma'nolarini ko'rib chiqaylik. Qadimgi turkiy til lug'atida *tut-* fe'lining sakkiz ma'nosi keltiriladi⁴⁷ (DTS,591) TNdagi ma'nolari quyidagilar: birinchisi, «ushlamoq» ma'nosi: *men ul qulunni sudin chiqib emarda qatiqlanib borib tutayin deymen* (8a); ikkinchisi, «qo'l bilan ushlamoq, qo'lga olmoq, amal qilmoq»: *holo yamon ish ilgari tutub, bizning dindin chiqib, o'zga dinga kirmish* (21a), *ba'zilarni tutub o'lturdi va ba'zilari qaydu xonning asiri bo'ldilar* (25b); uchinchisi, «ushlab olmoq, qo'lga kirtmoq»: *xalifatu-r-rahman himmatin oliy tutub davlat rikobin bosib...* (3b-4a); to'rtinchisi, «amal qilmoq, biror tartib, qoida kabilarni saqlamoq»: *Tutubsen bir-birini hikmat ila, qilibdursen jami'in qudrat ila* (2a); beshinchisi, «saqlamoq, asramoq»: *Emdi (eron) zaminda hind daryosig'a tegru maqom tutubtur* (16b); oltinchisi, «o'zida saqlamoq, birga olib yurmoq, taqib yurmoq»: *Bo'rta qavchinni tutub, Ungxong'a eltdilar* (15a); yettinchisi, «biror narsa yoki kimsaga biror tarzda munosabatda bo'lmoq»: *bu yaxshi ishlarin xon pisandida tutub turur* (14a); sakkizinchisi, uning ko'makchi fe'l sifatida ifodalaydigan ma'nolari bo'lib, qo'shma fe'llarning yasalishida ishtirok etadi: *Ilohiy, o'z panohingda tut ani* (3b)

Qadimgi turkiy til lug'atida *kuch tut-* qo'shma fe'li ham qayd etilgan bo'lib, «kuch ishlatmoq, kuchiga ishonmoq» tarzida izohlangan⁴⁸. Bu birikma aslida qo'shma fe'l bo'lmay, uning «kuch ishlatmoq» ma'nosi ham yo'q: *Chingizxong'a muvofiq bo'lub ko'p kuchlar tutdi, munung sharhi alohida kalgusi turur* (37b) Lug'atda keltirilgan misoldagi *kuchin tutib* birikmasi «kuchini ko'zlab, nazarda tutib; kuchiga ishonib» ma'nosini ifodalaydi. Bundan tashqari, birikmadagi *kuch* so'zi boshqa so'zlar bilan ham almashishi mumkin, masalan, *aql* va *boylik* so'zlari bilan kelganda «aqlga ishonmoq» va «boylikka ishonmoq» ma'nolarini beradi. Shu sababdan bu o'rinda *tut-* fe'lining «nazarda tutmoq» kabi navbatdagi mustaqil ma'nosini qayd etish maqsadga muvofiq bo'ladi: *Chun alar noqis aql tutur* (60b)

2. *Semantik strukturasi o'zgarish yuz bergan leksemalar*. TN leksikasidagi turkiy so'zlarning asosiy qismi mustaqil, o'z lug'aviy ma'nosida qo'llangan. Ayni chog'da mazkur leksemalarning semantik strukturasi muayyan ma'nolar iste'moldan chiqqan. Obida leksikasining funksional-semantik tahlili turkiy qatlamga oid so'zlarning eski o'zbek adabiy tilida keng semantik maydonga ega bo'lganini ko'rsatadi. Keyingi davrlarga kelib, bu semantik maydonning ancha torayganligi, ya'ni ko'p ma'noli so'zning qo'llanish o'rinlari bir muncha qisqargani ma'lum bo'ladi. Bir qator turkiy so'zlarning ma'lum ma'nolari hozirgi o'zbek adabiy tilida kuzatilmaydi.

⁴⁷ Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 591.

⁴⁸ Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 591.

Jumladan, asar matnida aks etgan soʻzlarni hozirgi adabiy tildagi qoʻllanish darajasi va semantik xususiyatlariga koʻra quyidagicha umumlashtirish mumkin:

a) *birlamchi maʼnosi saqlanib, ayrim maʼnolari isteʼmoldan chiqqan soʻzlar*. Bar soʻzi Navoiy asarlari tilida besh maʼnoda qoʻllanishda boʻlgani aniqlangan (ANATIL,I,313) Biz oʻrganayotgan obida matnida esa uning 1) “bormoq, qadam ranjida qilmoq”; 2) “ketmoq, joʻnamoq, tark etmoq”; 3) “oʻlmoq, vafot etmoq, qazo qilmoq, bandalikni bajo keltirmoq” maʼnolarini anglatgani kuzatildi: ...*Sayringning agar boʻlsa borish kelish* (78a) Soʻnggi maʼno *borish* feʼlining hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi oʻn yetti maʼnosi orasida kuzatilmaydi (OʻTIL,1,316)

b) *hozirgi oʻzbek adabiy tilida maʼno doirasi kengaygan leksik birliklar*. «Bir joydan boshqa joyga itarib oʻtkazmoq», «siljitmoq» (OʻTEL,I,308) maʼnosidagi *sur*= leksemasi qadimgi turkiy tilda quyidagi maʼnolarni ifodalashga xizmat qilgan: 1) «olib bormoq, yetaklab bormoq»; 2) «haydamoq»; 3) «shugʻullanmoq»; 4) «mashaqqat bilan kun kechirmoq»; 5) «shilinmoq». Lugʻatda uch maʼnoni ifoda etishga xizmat qilgan (ANATIL,II,126) TN matnida quyidagilarni anglatgan: 1) «davlatni idora qilmoq, hukm surmoq»: *Chingizxon bularning ilkidin surdi* (50b); 2) «haydamoq, chetlatmoq, quvmoq»: *ul borib boshidagʻi turkman elining tavalarin surub Urganchka bordi* (142b); 3) «qilmoq, yozmoq»: *ersa qilich birla chapa surdi* (143a); 4) «biror tomonga yoʻnaltirmoq»: *Ul qilich olgʻanda va surganda raxshin razm aro* (72a) Ushbu leksemaning hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanish doirasi ancha kengaygan boʻlib, «yurmoq» (shaxmat yoki shashka oʻyinida), «surtmoq, surkamoq» maʼnolarini ham ifodalaydi hamda otlar bilan qoʻshma feʼl yasaydi (OʻTIL,3,593-594)

Asarda ishlatilgan ish-harakat va holat maʼnosidagi soʻzlar sirasiga *tut*=, *ček*=, *čiq*=, *čiqar*=, *kes*=, *qaytar*=, *qil*=, *qol*=, *qoy*= kabi birliklarni ham kiritish mumkin.

Fonetik oʻzgarishlar bilan qoʻllangan soʻzlar. Eski oʻzbek adabiy tilida mavjud soʻzlarning ayrimlari hozirgi oʻzbek adabiy tilida baʼzi fonetik oʻzgarishlar bilan qoʻllanadi. Masalan, asarda qayd etilgan *dagʻi*= soʻzi hozirgi oʻzbek adabiy tilida *tagʻin* fonetik variantida ishlatilgan. Bu soʻz qadimgi turkiy tilda «buning ustiga», «bundan tashqari» maʼnosini anglatgan *taqʻı*= soʻziga vosita kelishigining *-n* qoʻshimchasini qoʻshib, hosil qilingan (ESTYa,III,124), maʼno taraqqiyoti natijasida bu soʻz ravishga aylangan; oʻzbek tilida *q* undoshi *gʻ* undoshiga, *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan, *ı* unlisining qattiqlik belgisi yoʻqolgan: *taqʻı + n = taqʻın > tagʻın > tagʻin* (OʻTEL,I,327) Oʻgʻuz unsurlarini oʻzida mujassam etgan *dagʻi*⁴⁹ soʻzini muallif quyidagi maʼnolarda qoʻllaydi: «ham, hamda»: *mukammal boʻlub kelib qarshini qabadi taqi anda maqbubining muhabbati oʻsha zaif badanining javohir xirmanigʻa tushti* (64a); «yana, tagʻin»: *taqi maʼrifat daryosi koʻnglungda mavjlanib ursa, ul daryoning mavjinda shariʼat birla nafsingni oʻlturub oʻzung gʻarq boʻlsang* (64a)

Asarda qoʻllangan bir qator turkiy soʻzlarning hozirgi oʻzbek tilidagi fonetik shaklini quyidagi qiyosda koʻrish mumkin: *alar > ular, äñä > uña, anda > unda, andin > undan, andaq > unday, anı > unı, anıñ > unıñ, bıčoq > pičoq, baltu > balta, bul > bu, biyik > büyük, yılan > ilan, tayayi > taya, üzä > üzrä, šariklik > šeriklik, emdi > endi, mundoy > bunday, nabät > navvāt, näčük > nečük, an.siz >*

⁴⁹ Юсуфов Б. Навоий асарларида ўғуз унсурлари //Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул ахамияти. – Тошкент: Oʻzbekiston, 2011. – Б.162.

usiz, oquyuči > oquvči, öčkü > ečki, qariš > qarič, qav= > quv=, köprük > köprik, turuš (čidam) > turiš, qošqun > quyušqan va h.k.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydigan so'zlar. TN leksikasidagi turkcha 2803 ta so'zning 230 tasi hozirgi o'zbek adabiy tili davriga kelib eskirgan. Ifodalagan obyektining xarakteriga ko'ra bu so'zlar arxaizm va istorizmlarga bo'linadi.

O'sha davr voqeligida faol qo'llangan, bugungi kun nuqtai nazaridan yondashilganda eskirgan qatlam hisoblanuvchi istorizm (tarixiy so'z)lar sirasiga asar matnida qo'llangan *bürünčäk* («yuzga tutiladigan ipak parda» (ANATIL,I,338), *börk* («oshlangan qorako'l teridan silindr shaklida tikilgan bosh kiyim, telpak»), *qari* («qo'l uchidan tirsakkacha bo'lgan o'lchov birligi, gaz»), *yïyač* («masofa o'lchovi») so'zlarini kiritish mumkin. Arxaizm ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqqan boshlagan til birligidir. Asar leksikasidagi eskirgan so'zlarning asosiy qismini arxaizmlar tashkil etgan. Asar matnida qo'llangan arxaizmlar tabiatini quyidagi misollar asosida izohlash mumkin. *Asru* arxaik so'zi «juda, nihoyatda, juda ko'p, behisob» ma'nosida qo'llangan: *Taqi shari'at masoyilida asru boxabar* (72a)

Bobning **“Tarixiy manbalarda arabcha va fors-tojikcha so'zlarning qo'llanishi”** deb nomlangan ikkinchi faslida o'zlashmalar qatlamining asar yaratilgan davr yozma yodgorliklari tiliga kirib kelishining siyosiy, ijtimoiy, madaniy omillariga to'xtalgan. Qur'on oyatlari tafsiri va hadislar sharhi, ularni tushunish, kelib chiqishi va sabablarini bilish talab qilinganligi bois Payg'ambarlik davriga oid hodisalarning tavsifini bir vaqtning o'zida ham yig'ish, ham qayd etish zaruriyati yuzaga keldi. Qur'onda o'tmishda o'tgan payg'ambarlar hayotiga oid bir qancha oyatlarning mavjudligi olimlarni ularning tarixiga oid tadqiqotlarni olib borishga undadi⁵⁰. Boshqa tomondan, islom tarixshunosligi Payg'ambarimiz SAV hayotlari, urushlari, Bani isroil va Yaman tarixiga oid voqealarni qayd etish doirasida rivojlangan deyish mumkin. Hijriy IV asr (milodiy VII) tarixchilaridan Mas'udiy “Muruj uz-zahob” nomli asari muqaddimasida o'zidan oldin tarix yozgan saksonga yaqin tarixchini tilga olishi qisqa vaqt ichida tadqiqot qanchalik rivojlanganligini ko'rsatadi⁵¹.

Jahon tarixida fors tarixnavisligining tutgan o'rnini o'rganish jarayonida uning turkiy xalqlar tarixi, kelib chiqishini ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'ramiz. Fors va arab tarixshunosligi yozma manbalari o'rtasida shakl hamda mazmun-mohiyat jihatidan umumiy o'xshashliklar mavjud. Ba'zi yozma yodgorliklar arabcha asarga taqlid, tafsir yoki nusxa ko'chirish shaklida bitilgan bo'lib, ularda ko'pincha tanqid va baholashning yetishmasligi ko'rinadi⁵².

Fors qo'lyozmalari o'zidan avvalgi manbalar an'analarni davom ettirish bilan bir qatorda o'ziga xos yangiliklarni ham olib kirdi. Qo'lyozmalarni arab tilida bitish susayib, o'rniga fors-tojik tilida ijod qilish ko'zga tashlanadi⁵³. Manbalarda umumiy an'ananing saqlangani, mavzu jihatidan turfa bo'lsa ham, shakl va qurilishda yozilmagan qoidalarning mavjudligini aytib o'tish darkor. TN, undan avval va keyin yaratilgan manbalar tadqiqi shuni ko'rsatdiki, muayyan bir hukmdor yoki sulola tarixini yozish vaqt o'tishi bilan umumiy – katta davr tarixini yozishga almasha

⁵⁰ Günaltay M. İslâm'da Tarih ve Müverrihler. – İstanbul: Endülüs Yayınları, 1991.

⁵¹ Günaltay M. İslâm'da Tarih ve Müverrihler. – İstanbul: Endülüs Yayınları, 1991.

⁵² Gibb Hamilton A. İslâm Ansiklopedisi. Tarih. C. XI. – İstanbul, 1970. – S. 793.

⁵³ Demir M. İslâm ortaçağı'nda İran bölgesindeki tarih yazıcılığı. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. №34. – Erzurum, 2007. – S.255-273.

boshlaydi. Bu uslub an'anaviy va standartlashtirilgan shaklga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Davrning nodir manbalari bo'lgan "Tarixi jahonkusho", "Jome' at-tavorix", TN kabi asarlar nafaqat sharq, balki jahon tarixining boy ijod namunalari bo'ladi. Turkiy manbalar, xususan tarixga oid asarlar qatoriga Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"ning 1519-yili eski o'zbek tiliga qilingan o'girmasi, Navoiyning "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo" hamda tadqiqotimiz obyekti hisoblanmish TN kabi asarni kiritish mumkin.

Bobning uchinchi fasli "**Arabcha o'zlashmalar va ularning mavzu guruhlari**"ni tadqiq etishga bag'ishlangan. Arab tiliga mansub so'zlarning o'zbek tiliga kira boshlagan davri milodning 751-yilga to'g'ri keladi. Arab xalifalari va Xitoy imperatorlari o'rtasida bo'lib o'tgan qattiq jang O'rta Osiyo xalqlarining taqdirini hal qildi. Bu jangda arablar ustun keldi va o'sha sanadan boshlab deyarli butun O'rta Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kiritildi⁵⁴. Demak, O'rta Osiyoning arab hukmdorlarining qo'liga rasman o'tishi VIII asrning o'rtasida sodir bo'lgan. Beruniy ham Eron, Sug'd va Xorazmda shu xalqlarning ilmiy va madaniy yozuv yodgorliklarining Qutayba tomonidan yo'q qilib tashlanganini VIII asrda sodir bo'lgan, deb ma'lumot bergan⁵⁵. Shu davrdan boshlab O'rta Osiyo turkiy xalqlari, shu jumladan, hozirgi O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi xalqlarning ajdodlari hayotidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoit tubdan o'zgarib, ularning tarixida yangi davr boshlandi, desak xato bo'lmaydi.

O'zlashgan arabcha so'zlar ifodalaydigan tushunchalar o'ziga xos mavzu guruhlari tashkil etadi. Arabcha so'zlarning o'zbek adabiy tiliga o'zlashish omillari haqida boshqa tadqiqotlar orqali ham tanishish mumkin⁵⁶. Yuqorida ta'kidlanganidek, TN so'z boyligida 1447 ta arabcha so'z mavjud bo'lib, bu asar leksikasining 25%ini tashkil qiladi. Asarda XVI asr o'zbek adabiy tilida keng qo'llangan arabcha so'zlar o'z aksini topgan, ular turli mavzuiy guruhlarga oid voqelik, narsa-hodisalarni ifodalashga xizmat qilgan. So'zlarning ma'no xususiyatlarini tadqiq etishda ularni mavzu guruhlari birlashtirishning ahamiyati sezilarli bo'lib, ba'zilari o'ziga xos izohlash usulini talab qilishi mumkin. Asarda qo'llangan arabcha so'zlar 23 ta mavzuiy guruhlarga (tabiat hodisalari va osmon bilan bog'liq tushunchalar; falsafiy tushunchalar; diniy tushunchalarni ifodalovchi teonimlar; ismlar, laqablar, tahalluslar va h.k.) bo'lib o'rganildi.

Shuningdek, o'zlashmalar quyidagicha tadqiq etildi: 1. Arabcha o'zlashmalarining eski turkiy tilga munosabati. Asar leksikasida mavjud arabcha so'zlarning ma'lum qismi eski turkiy tilda ham iste'molda bo'lgan. Arab tiliga xos umumlashtiruvchi otlar: *adab, adad, adl, adavat* va h.k; narsa-predmet nomlari: *kitāb, varaq, libās* va h.k; shaxsni ifodalovchi so'zlar: *rasul, vazir, hukamā*; mamlakat nomlari: *Arab, Ajam*; belgi xususiyat nomlari: *aziz, yalat* kabilar shular jumlasidandir. Ushbu o'zlashmalar asar matnida lug'atlarda qayd etilgan ma'nolarda

⁵⁴ Оранский И. М. Введение в иранскую филологию. – М., 1960. – С. 149.

⁵⁵ Ўзбекистон тарихи. I том. 1-китоб. – Тошкент, 1956. – Б. 144.

⁵⁶ Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи масалаларига доир: Тил ва адабиёт институти асарлари. – Тошкент, 1949; Камол Ф. Ўзбек тили лексикаси. – Тошкент, 1953; Боровков А.К. Лексика среднеазиатского «Гецфира» XII-XIII вв. – М., 1963; Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форс ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон. – Тошкент, 1968; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1989; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (Арабча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003; Ҳасанова Д. Арабча луғавий ўзлашмаларнинг ўзбек тили номинатив ва дериватив тизимидаги ўрни: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Тожибоева М. Алишер Навоийнинг «Илк девон»идаги арабча сўзларнинг лексик-семантик талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Иброҳимов А. Бобур «Девон»и тилидаги ўзлашма лексика. – Тошкент, 2006; Шу муаллиф: Бобур асарлари лексикасининг лингвостатистик, семантик ва генетик тадқиқи. («Девон», «Мубаййин», «Аруз»): Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.

uchraydi. Arabcha soʻzlarning eski oʻzbek adabiy tili davriga xos quyidagi qoʻllanish jihatlarini kuzatish mumkin: 1) koʻplikdagi otlar birlik maʼnosida qoʻllangan: *afʼāl* – «harakat», «qiliq», maʼnosidagi *feʼl* soʻzining koʻplik shakli: *seni bu afʼāliyni istimāʼ qilsa; atbaʼ - tabi* soʻzining koʻplik shakli boʻlib, «tobeʼlar, fuqarolar, qarashli kishilar, tarafdorlar, izdoshlar» maʼnosini ifodalaydi (ANATIL,I,133) Asar matnida leksema koʻplik maʼnosidan tashqari, birlik maʼnosida ham kelgan. *Bahāyim* – «toʻrt oyoqli hayvonlar»; *vuzarāt* - «vazirlar»; 2) soʻzlar koʻplik *mahallāt, havādis, sifāt, ulamā, zurriyāt, anjum, aflāk, atfāl*; sifatdash *mutajabbir, mutakallim, mutanabbih* shaklida ishlatilgan.

2. Arabcha oʻzlashmalarning hozirgi oʻzbek adabiy tiliga munosabati. Asar leksikasidagi jami arabcha soʻzlarning 74%i hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanadi. Ular hozirgi oʻzbek adabiy tiliga munosabati jihatidan quyidagilarga ajratildi: a) *eski oʻzbek adabiy tili davriga xos maʼnolarda qoʻllanadigan soʻzlar* asar tilida ishlatilgan arabcha oʻzlashmalarning asosiy qismini tashkil etadi. Masalan, *murād* – «tilak, maqsad, orzu», *musibat* – «qaygʻu, gʻam-alam, motam»; *tāat* – «toat-ibodat, sigʻinish, topinish, boʻysunish, itoat qilish», *avlād* – «bolalar, farzandlar, oʻgʻillar, nasl», *adālat* – «haqqoniylik, insoflilik, shafqatlilik, odillik», *aql* – «idrok, zehn» shular jumlasidandir. Hozirgi oʻzbek tili soʻz boyligining qariyb 40%ni tashkil qilgan arabcha unsurlarning har biri oʻziga xos yoʻllar orqali, muayyan shart-sharoitlar taqozosi bilan turli davrlarda oʻzlashgan, har bir oʻzlashma oʻziga xos singish jarayonini boshidan kechirgan.

Maʼno oʻzgarishlarga uchragan arabcha oʻzlashmalar. Asar soʻz boyligida mavjud arabcha oʻzlashmalarning ayrimlari hozirgi oʻzbek adabiy tilida maʼno oʻzgarishlari bilan qoʻllanadi. Soʻzlarning maʼno qurilishidagi oʻzgarishlar maʼno torayishi, muayyan semalarning isteʼmoldan chiqishi bilan xarakterlanadi. «Hayotdagi muayyan bir holat, vaziyat, ahvol» (OʻTIL,5,548) maʼnosidagi *hāl* oʻzlashmasi TN tilida «on, vaqt, fursat» maʼnosida ham qoʻllanishda boʻlgan. Xuddi shu maʼnoda matnda quyidagidek ifodalangan: *Ul holda Chingizxon podshoh boʻlmasdin burun va naychivut qavmi xon bilan nizoʻ ustida erkandurlar* (17b) Hozirgi oʻzbek adabiy tilida *hāl* oʻzlashmasi semantik maydonida ushbu maʼno kuzatilmaydi (OʻTIL,5,548) Shuningdek, TNda bu soʻzning «holat, vaziyat» kabi maʼnolari ham uchraydi: *Bu holdin xabardor boʻlgʻandin soʻng, ahvolini aytib, hamsoyasidin bir kishi Oʻgʻuzgʻa eʼlon qilib yibardi* (21b)

3. Hozirda qoʻllanmaydigan arabcha soʻzlar. TN matnida qoʻllanishda boʻlgan oʻzlashmalarning 26%i hozirgi oʻzbek adabiy tilida isteʼmoldan chiqqan birliklardir. Asarda qoʻllangan, ammo hozir istorizmga aylangan oʻzlashmalar sirasiga quyidagi soʻz va istilohlarni kiritish mumkin: *kayl* – «gʻalla oʻlchaydigan asbob», *zarf* – «suyuqlik solinadigan idish, kosa», *mahmil* – «mahofa, kajava», *sinān* – «nayza uchi», *harba* – «nayza», *manjaniq* – «tosh otar qurol, palaxmon», *sarir* – «taxt», *janibat* – «podshohlar safarga chiqqanda ehtiyot uchun olib yuriladigan ot».

Ikkinchi bobning **“Forscha-tojikcha oʻzlashmalar va ularning mavzu guruhlari”** deb nomlangan toʻrtinchi faslida asardagi forscha-tojikcha oʻzlashmalar toʻgʻrisida soʻz boradi. Asardagi forscha-tojikcha oʻzlashmalar haqida gap ketar ekan, oʻzbek adabiy tilining shakllanishida fors tilining ishtiroki hamda eroniy leksik qatlamning tarixiy tavsifi masalalariga toʻxtalib oʻtmoqni joiz deb topdik. Baʼzi qardosh boʻlmagan urugʻ va qabilalar orasidagi aloqalar xalqlarning etnik-lingvistik taraqqiyotiga, ayrim millatlar tilida turli qorishiq til birliklarining paydo boʻlishiga

olib keladi. Turkiy va o'zga oilaga mansub bo'lgan tillar orasidagi aloqalar hamda bu aloqalar tillarning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida Mahmud Koshg'ariy ham o'z vaqtida fikr bildirib o'tgan⁵⁷. O'zbek tilining boshqa oilaga mansub tillar, xususan, fors tili bilan o'zaro munosabati muhim masalalardan biridir⁵⁸.

O'zbek va tojik xalqlari O'rta Osiyoda istiqomat qiluvchi eng qadimiy xalqlardan bo'lib, bu ikki xalq bir xil turmush sharoiti va umumiy hududga ega bo'lganligi sababli ijtimoiy hayotning turli sohalarida qadimdan hamkorlik qilib keladilar. Shuning uchun o'zbek va tojik xalqlarining tillarida ko'p o'xshashliklar mavjud, ular tilning barcha sathlari, ya'ni tovush tizimi, so'z boyligi va grammatik qurilishida aks etgan. Y.D.Polivanov o'zbek shevalarini tasniflashda eronlashgan va eronlashmagan o'zbek lahjalarini farqlagan⁵⁹. Adabiyotlarda o'zbek tili va shevalarining tojik shevalariga ta'sir qilish hollari ham ko'rsatilgan⁶⁰.

TNda tasvirlangan ayrim voqealar bayonida ba'zi qabilalar haqida gap borar ekan, ularning eroniymi yoki turkiy ekanligini aniqlash qiyin bo'lgan. Turklar va eroniylar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarning bu qadar uzoq tarixga ega ekanligi bois har ikki tilda uchraydigan ayrim so'zlarning asl manbasi qaysi til ekanligini aniqlash maxsus izlanishlarni talab qiladi. Masalan, tadqiqotimiz manbasida uchraydigan «*qadah*» ma'nosidagi forscha-tojikcha *sog'ar* va Mahmud Koshg'ariy «*may*» ma'nosida qayd etgan *chag'ir* (DLT,I,343) so'zlarining bir-biriga munosabatida shunday holatni ko'rish mumkin: *Bu so'z elda mashhur bo'lub, ul mahalda bir sog'ar ichkuchi ko'hluq yuraklik Qarasundur atliq bahodir kishi bor ermish* (8a) Bunday masalaning qo'yilishiga sabab, birinchidan, mazkur so'zlar ohangdosh, ya'ni o'zaro juda yaqin tovush qurilishiga ega, ikkinchidan «*may*» va «*may solinadigan idish*» ma'nolarining so'zdagi ma'no taraqqiyoti natijasida bir so'z orqali ifodalanishi tilda uchraydigan hodisa bo'lib, bunga turkiy *ayaq* so'zi ham misol bo'la oladi. Bunday ma'no ko'chishi metonimiya, deb yuritiladi. *Ayaq* so'zi XIV asrda faqat «*idish, jom*» ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, XV asr yozuv yodgorliklarida u «*may*» ma'nosini ham ifodalab kelgan, xususan, TNda: *Ayaqlarg'a quydurub, taqi beklar va bahodirlarni chirkalik chirkasi birla o'lturg'urub baylag'il* (13b) Bundan tashqari, fors-tojik mumtoz adabiyoti, TN va Navoiy asrlari tilida *sog'ar* so'zi turli iboralar va qo'shma so'zlar tarkibida «*may*» ma'nosida ham ishlatilgan: *...bu sog'ar ichib, su oti mingan erni boshla deb yetgach* (8b) (FZT,I,264; ANATIL,III,110) O'rta Osiyoda fors-tojik tilining ta'siri o'zining eng yuqori nuqtasiga yetishi TN asari tilining leksikasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi: *haroson* «qo'rqan, cho'chigan», *hangom* «payt, vaqt», *hamto* «teng, monand, o'xshash», *shirin zabon* «shirinso'z», *shabgir* «tun», *chashm* «ko'z» kabi so'zlar shular sirasidandir.

TNdagi forscha so'zlarning mavzu guruhlari 21 taga tasnif etildi, asarda 1389 ta forscha-tojikcha so'z mavjud bo'lib, bu asar leksikasining 24%ini tashkil etadi.

I. Forscha-tojikcha so'zlarning qadimgi turkiy til va eski turkiy tilga munosabati. TN leksikasidagi forscha-tojikcha leksemalarning muayyan qismini

⁵⁷ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1 том. – Тошкент, 1960. – Б. 64-69.

⁵⁸ Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 16.

⁵⁹ Поливанов Е.Д. Образцы не-иранизированных (сингармонических) говоров узбекского языка. I-II. – М.: Отд. гуманитарных наук, 1929.

⁶⁰ Дасторгуева В.С. Об устойчивости мифологической системы языка (по материалам северных таджикских говоров). В кн. Вопросы теории и истории языка. – М., 1952. – С. 225-236.

qadimgi turkiy til va eski turkiy tilda faol qo‘llangan so‘zlar tashkil etadi. «Tarashlab sayqal berilgan olmos; umuman qimmatbaho toshlarning umumiy nomi; javohir» ma’nosidagi *gavhar* o‘zlashmasi eski turkiy tilda *gavhar, gevhar, guhar* (DTS,195) fonetik shakllarida faol qo‘llanishda bo‘lgan. TNda ushbu so‘z «gavhar, dur, qimmatbaho tosh» ma’nosida *gavhar//guhar* shakllarida voqelangan: *Shahanshoh qo‘linda mardonalar, Bahodir-i guhar toj-u zarrin kamar* (80a)

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, ushbu so‘z «sochuvchi, sachratuvchi» ma’nosidagi *fišān* fe‘lining qisqartma shakli *afšān* leksemasi bilan qo‘shma so‘z hosil qilgan va «gavhar sepuvchi, gavhar sochuvchi» ma’nosida (ANATIL,I,388) quyidagicha ishlatilgan: *Ey, Shayboniy, dilbarning durr-i yatimdur qo‘ymani, Sen bilursen qadrini javāhirfišāndur yana* (71b) Ko‘rinib turibdiki, muallif misolda *gavharfišānga* ma’nodosh bo‘lgan (arabcha+forscha-tojikcha) qo‘shma so‘z *javāhirfišāndan* foydalanadi. Bu esa mazmunning ta’sir kuchini yanada oshiradi.

Asar leksikasidagi forscha-tojikcha so‘zlar eski o‘zbek adabiy tiliga xos ma’nolarda qo‘llangan bo‘lib, ularning ko‘zda tutilgan davrda qay tarzda ishlatilganligini quyidagi so‘zlarning semantik tahlili orqali kuzatish mumkin.

a) *shaxs ma’nosidagi forscha-tojikcha o‘zlashmalar*. Shaxs ma’nosini ifodalovchi aynan «katta yer egasi, zamindor, qishloq hokimi» lug‘aviy ma’nosini ifoda etuvchi *dehqān* so‘zi TN matnida «qishloq boshlig‘i, badavlat kishi, dehqon» ma’nosida ishlatilgan. Asarda so‘zga turkiycha *-liq* qo‘shimchasini qo‘shish yordamida yasalgan va «dehqonlik, dehqonchilik» ma’nosidagi *dehqānliq* leksemasidan foydalanilgan: *Va anīh īsh dehqānliq erdi* (57b) Bugun *dehqān* so‘zi semantikasida muayyan o‘zgarish ro‘y bergan, ya’ni bu o‘zlashma hozirda «asosiy kasbi yerga ishlov berish, ekin ekishdan iborat bo‘lgan kishi» ma’nosini (O‘TIL,1,603) ifodalashga xizmat qilmoqda.

b) *narsa-buyum ma’nosini ifoda etuvchi forscha-tojikcha o‘zlashmalar*. «Yog‘och, metall, tosh va shu kabi narsalarni qirqish, kesish uchun ishlatiladigan qirra tishli asbob» (O‘TIL,1,100) ma’nosidagi *arra* istilohi asarda shunday qo‘llangan: *arra qoyub iki boldilar* (22b)

v) *mavhum ma’no ifodalovchi o‘zlashmalar*. Aynan «aylanmoq» lug‘aviy ma’nosidagi *gardun* so‘zi yodgorlik matnida «dunyo, olam, jahon, falak, taqdir» ma’nosida (*Qilich zarbi uni gardung‘a yeti, Oqib qon so‘ngin sayhung‘a yeti* (100b) *čarx* o‘zlashmasi bilan ma’nodoshlikni yuzaga keltirgan: *Ey mo‘g‘ullar, qochingiz qardoshlarimg‘a qildi charx* (92a) *Čarx* so‘zi asli «aylana gardishi» ma’nosini anglatgan. Mazkur istiloh asar leksikasida fors tiliga xos izofiy birikmaning tarkibi sifatida faol qo‘llanishda bo‘lgan: *čarx-i bebāk* (99a) – «beparvo, zolim dunyo». Shuningdek, ushbu so‘z arabcha o‘zlashmalar bilan ham sintagmatik aloqaga kirishib, quyidagi izofiy birikmalarni hosil qiladi: *čarx-i muxālif siyar* (19b) – «doim xilof ish qiluvchi falak, teskari taqdir», *čarx-i dajam* – «sitamgar charx», *čarx-i dun* (65b) – «teskari aylanuvchi pastkash falak». Ushbu o‘zlashmaning ma’no mundariyasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida birmuncha kengaygani bilan xarakterlanadi, ya’ni eski o‘zbek adabiy tilida, asosan, 1) «gardish, charx»; 2) «osmon, falak»; 3) «davri, zamon»; 4) «baxt, tole’» (ANATIL,III,452) kabi mavhum tushunchalarni ifodalagan ushbu o‘zlashma hozirda «ip yigiradigan dukli qo‘l asbobi», «har xil asboblarning, qurilmalarning aylanadigan qismi, parragi» hamda «kesuvchi

asboblarning tig‘ini o‘tkiraydigan, qayraydigan asbob»⁶¹ kabi aniq ma‘nolar qatori «gardish, aylana» kabi ko‘chma ma‘noni ham anglatmoqda (O‘TIL,4,462)

g) *belgi-xususiyat ma‘nosidagi forscha-tojikcha o‘zlashmalar*. «Rang-barang, xilma-xil, turli-tuman» ma‘nosidagi *gunāgun* o‘zlashmasi (ANATIL,I,426) TN matnida quyidagidek ifoda etilgan: *Yašil debā va gunāgun javāhir sabza* (102b)

II. *Forscha-tojikcha o‘zlashmalarining hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati*. Asardagi forscha so‘zlarning hozirgi o‘zbek tiliga munosabatini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, hozirgi o‘zbek tilida tadqiq etilayotgan asarda qo‘llangan ayrim so‘zlarning unutilganligi, ayrimlarining ma‘nolari torayganligi va ba‘zi so‘zlarning shakli yoki ma‘nosi o‘zgarganligi oydinlashadi. Lekin shu so‘zlarning yoki so‘z ma‘nolarining ba‘zilari ayrim o‘zbek shevalarida hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. Asar tilidagi forscha-tojikcha o‘zlashmalar hozirgi o‘zbek adabiy tili davridagi iste‘mol darajasiga ko‘ra quyidagicha ajratildi:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadigan forscha-tojikcha o‘zlashmalar. Statistik tahlil TNda qo‘llangan 1389 ta forscha-tojikcha so‘zning 1180 tasi, ya‘ni 84%i hozirgi o‘zbek adabiy tilida iste‘molda ekanligini ko‘rsatdi. Obidada ishlatilgan forscha-tojikcha o‘zlashmalar, asosan, bir ma‘noga egaligi bilan xarakterlidir. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadigan forscha-tojikcha o‘zlashmalar ikki guruhga ajratildi: 1) *ma‘no qurilishida o‘zgarish sodir bo‘lmagan forscha-tojikcha o‘zlashmalar* eski o‘zbek adabiy tili davriga xos ma‘nolarni ifodalaydi. Bular: narsa-buyum nomlari: *zanjir, nard, ganj, barg*; belgi ifodalovchi so‘zlar: *gunāhkār, begunāh*; ayrim shaxs otlari: *sāzanda, nabira*; yordamchi so‘zlar: *goyā, garči, agarči, gah//gāh* va h.k. 2) *ma‘no qurilishida o‘zgarish yuz bergan o‘zlashmalar*. *Anjām* – «tugash, oxir» lug‘aviy ma‘nosidagi ushbu o‘zlashma hozirgi o‘zbek adabiy tilida «uy-ro‘zg‘or narsa-buyumlari, asboblari tegishli narsa» ma‘nosida qo‘llanadi. TNda «oqibat, oxir, intiho, poyon, tugash» ma‘nosida qo‘llangan: *Har necha ish qatig‘ bo‘lsa bularg‘a anjom qilib bir tegarbiz dedi* (131b) Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ushbu ma‘no kuzatilmaydi (O‘TIL,1,85) 3) *hozirgi o‘zbek tilida ma‘nosi toraygan so‘zlar*. Bu so‘zlar o‘sha davr tilida bir necha ma‘nolarni ifodalagan, lekin hozirga kelib, ular ayrim ma‘nolarini yo‘qotgan. Hozirgi o‘zbek tilidagi «o‘ziga mustaqil har bir oila, har bir xo‘jalik» ma‘nosida qo‘llanadigan *ro‘zg‘or* so‘zi eski o‘zbek adabiy tilida «hayot, umr», «dunyo, olam» kabi ma‘nolarda ishlatilgan: *jonimg‘a javri ro‘zgor*.

II. *Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydigan forscha-tojikcha o‘zlashmalar*. TNda qo‘llangan 504ta forscha-tojikcha so‘zning 209 tasi, ya‘ni 15%ini hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydigan so‘zlar tashkil etadi. Asar matnida mavjud istorizmlar sirasiga quyidagi so‘zlarni kiritish mumkin: *saxtiyān* – «echki terisidan qilingan bayroq; echki terisi»; *xājasarāy* – «axta kishi, haram qorovuli»; *xānsālār* (mo‘g‘. + f-t) – «bosh dasturxonchi, shoh qoshida ovqat tortish ishlarini boshqaruvchi»; *gāzur* – «kir yuvuvchi», *kanīzak* – «yosh cho‘ri ayol», *sanbārān* – «toshbo‘ron, tosh yog‘dirish», *čārmix* – «gunohkorlarni ikki qo‘l va ikki oyog‘idan bog‘lab, azob berish uchun to‘rt tomonga qoqilgan qoziq», *šikāf*– «yoriq, darz, chok, teshik» va h.k.

⁶¹ Vafoidiy A., Avezmetov Sh. O‘zbek tiliga o‘zlashgan forscha so‘zlar. – Tehron – Toshkent: «Al Xudo» xalqaro nashriyati, Мовароуннахр nashriyati, 2005. – B. 216-217.

3. Fors-tojik tiliga xos morfologik birliklar yordamida hosil bo'lgan o'zlashmalar va ularning semantik tabiati. Asar leksikasida bir qancha fors-tojik tiliga xos morfologik birliklar yordamida hosil qilingan sodda yasama yoki qo'shma so'zlar ishtirok etgan bo'lib, asosga qo'shilgan har bir qo'shimcha yoki so'z unga qo'shib so'zning turli ma'nolarini hosil qilishga xizmat qilgan va lug'at tarkibini yangi so'zlar bilan boyitgan.

Xususan, asarda qo'llangan *begunāh*, *bedād*, *benavā*, *beparvā*, *bečāra* o'zlashmalari fors-tojik tiliga xos inkorni, yo'qlikni ifodalovchi *be-* old qo'shimchasi yordamida hosil qilingan bo'lib, bu affiks shaxsga oid xarakter-xususiyat, holatning mavjud emasligi (O'TIL,5,574) ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan. Shuningdek, *nāpāk*, *nārāzi*, *nāxuš* so'zlari ham *nā-* old qo'shimchasi bilan yasaliq, belgi-xususiyat ifodalovchi asosga qo'shib, asosdan anglashilgan belgi, xususiyat, holatga ega emaslik ma'nosini (O'TIL,5,586) ifodalagan. Ta'kidlash joizki, *sar-*, *xuš-* komponentlari ham fors-tojik tiliga xos bo'lib, yangi so'z hosil qilishdagi sermahsulligi bilan xarakterlanadi. Bu xususida tadqiqotlarda xam maxsus yoritilgan⁶². «Yaxshi, yoqimli» ma'nosidagi *xuš* so'zi otlarga qo'shib, belgi-xususiyatni ifoda etuvchi qo'shma so'zlarni hosil qilgan: *Xušnavāz* (bu o'rinda antroponim sifatida) «xush va yoqimli ohang, kuy», *xušhāl* «biror narsadan mamnun, shod, xursand», *xušxoy* «xushfe'l, xushtabiat», *xušnud* «xursand, shod, rozi» kabi.

Ishning uchinchi bobi “**Tavorixi guzida. Nusratnoma**” asari leksik tizimining semantik tahlili” deb nomlangan bo'lib, birinchi faslda “**Asardagi so'zlarning leksik-semantik tabiati**” masalasi tadqiq etilgan. Ta'kidlash lozimki, til birliklarining obyektiv olam, reallikni ifoda etishini va aksincha, obyektiv olam, borliqning semantik predmetlar orqali umumlashtirish jarayoni mavjudligini talqin qilish semasiologik va onomasiologik yo'nalish sifatida izohlanadi. Semasiologik tahlil lug'aviy birliklarning semantikasi va u bilan bog'liq hodisalar nuqtai nazaridan o'rganishdir⁶³. Shundan kelib chiqib, mazkur bobda TNda qo'llangan so'zlar funksional-semantik jihatdan tadqiq etilgan. V.V.Vinogradov ta'kidlagandek, adabiy tilning tarixi uning buyuk yozuvchilari asarining tili qiyofasida namoyon bo'ladi⁶⁴. Badiiy asarning, xususan, mazkur tadqiqot uchun manba sifatida tanlangan asarning tilini yaxlit holda o'rganish tilshunoslik fanini yangi ma'lumot va dalillar bilan boyitadi.

Shu jihatdan qaraganda, TN leksikasi o'ziga xos xilma-xil mavzuiy guruhlarni tashkil etib, bir nechta semantik guruh va guruhchalardan iborat. Quyida asarda faol qo'llangan leksik birliklarni turli mavzuiy guruhlariga bo'lib tasnif qilish orqali ulardagi funksional-semantik xususiyatlarni o'rganishni lozim topdik. Chunki bunday yo'l, bir tomondan, qo'llanilgan so'zlar majmui haqida, ikkinchi tomondan, ularning tarkibiy jihati, matndagi funksional-semantik tabiati haqida muayyan ilmiy xulosalar berishga imkoniyat yaratadi. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, asarda qo'llangan leksik birliklar quyidagicha tasniflandi: I. *Narsa-hodisaning nomi bo'lgan so'zlar*. Bunday so'zlar asar leksikasidagi boshqa so'zlar guruhidan, qo'llanish darajasiga ko'ra eng faol, miqdori jihatidan eng ko'pini tashkil etishi, shuningdek, bir necha belgi xususiyatlari bilan farqlanishiga ko'ra ajralib turadi.

⁶² Гулямов Х. Узбекско-таджикские языковые связи. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 9–125; Бафоев Б. Алишер Навоий лирикасида «сар» «сўзи» орқали ясалган қўшма отлар // Адабий мерос. – №1. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.184.

⁶³ Ҳожиев А. Тилшunoslik терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б. 87.

⁶⁴ Чарыев Б. Некоторые вопросы лексики поэзии Гафура Гуляма. Автореф. дисс. кан.филол. наук. – Ташкент, 1979. – С. 30.

Ushbu guruh soʻzlarini, oʻz oʻrnida, quyidagicha tasniflaymiz: 1. *Tana aʼzolari nomini ifodalovchi soʻzlar*. Asar matnida jami 27 ta kishi tana aʼzosi nomlari qoʻllanilgan. Ularning 22 tasi sof turkiycha: *qursay, egin* kabi. 2. *Qarindoshlik, yaqinlik tushunchasini ifodalovchi soʻzlar*. Qarindoshlik terminlari leksikaning eng qadimgi qatlamlariga mansubdir⁶⁵. Tarixiy qarindoshlik-yaqinlik munosabatlarini aks ettiruvchi bunday leksik-semantik guruhlar har bir tilning asosiy lugʻat fondiga kiradi⁶⁶. Qarindoshlik nomlari eng qadimgi semantik guruh hisoblanadi. Ularning 98%ini qadimgi turkiy til davrida qoʻllangan terminlar tashkil etadi⁶⁷. Statistik tahlilga koʻra asar matnida jami 31ta qarindoshlik, yaqinlik tushunchasi nomlari qoʻllangan boʻlib, ularning asosiy qismini turkiy soʻzlar tashkil etadi: oʻz qatlamga oid qarindoshlik, yaqinlik terminlari: *ona, ata, aya-ini* kabi; oʻzlashgan qatlamga oid qarindoshlik, yaqinlik nomlari: *ibn, haram*. 3. *Quruqlikdagi biror geografik obyekt va maxsus oʻrin-joy nomlari*. Asardagi oʻrin-joy tushunchasini ifodalovchi soʻzlar ikki guruhga ajratildi: a) *tabiiy holda mavjud boʻlgan geografik obekt tushunchasini ifodalovchi soʻzlar: tay, jibāl*; b) *shaxs tomonidan bunyod etilgan geografik obekt tushunchasini ifodalovchi soʻzlar: deh, mihmānxāna*. 4. *Suv obektlari va ular bilan bogʻliq tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar*. Bunday soʻzlar maʼnosiga koʻra ikki guruhga ajratildi: *suv, buloʻy*. 5. *Fasl va vaqtga oid tushunchalar nomi boʻlgan soʻzlar*: *bahman, šavvāl*. 6. *Ovchilik bilan bogʻliq tushunchalarni anglatuvchi soʻzlar: av, šikār* kabi. Shu kabi jami 18 turdagi narsa-buyum nomlari keltirilgan.

II. *Harakat va holatni ifoda etuvchi soʻzlar*⁶⁸. Asar leksikasida 540 dan ortiq harakat va holatni ifodalovchi soʻzlar qoʻllangan boʻlib, ularning barchasi oʻz qatlamga tegishli tub va ichki imkoniyatlar asosida yasalgan yasama soʻzlardir: 1) *jismoniy faoliyat bilan bogʻliq harakatni ifoda etuvchi soʻzlar: kir, ač, sayd qil, südrä, tep* va h.; 2) *nutqiy faoliyat bilan bogʻliq harakatni ifodalovchi soʻzlar: ayt, de, javāb ber, ant ič, qičqir* va h.; 3) *aqliy faoliyat bilan bogʻliq harakatni ifodalovchi leksemalar: bil, ānla, gumān qil, tilä, oqi* va h.; 4) *holatni ifodalovchi soʻzlar: zāhir bol, nāmuslan, āzurda bol, taskin tap, uyuqla, muraffah bol, masrur bol, xursand bol* va h.

III. *Belgi-xususiyatni anglatuvchi soʻzlar*. Asar leksikasida 600 dan ziyod shaxs yoki narsaning belgi-xususiyatini ifodalovchi soʻzlar ishlatilgan: 1) *shaxsning feʼl-atvori, xarakter-xususiyatini aks ettiruvchi soʻzlar: dānišvar, xušxoy* va h.; 2) *shaxs yoki narsaning hajm-oʻlchov belgisini anglatuvchi soʻzlar: uzun, qisqa, azim, irik, biyik, uluy* va h.; 3) *rang-tusni ifoda etuvchi soʻzlar: qara, sabz* va h. 4) *shaxsning jismoniy holati bilan bogʻliq belgi ifodalovchi soʻzlar: kör, abras*.

IV. *Ish-harakat va holat belgisini ifodalovchi soʻzlar*: 1) *harakatning paytini bildiruvchi soʻzlar: tanla, kečqurun*; 2) *harakatning bajarilish oʻrnini bildiruvchi soʻzlar: ičkäri, nari*; 3) *harakatning bajarilish tarzini bildiruvchi soʻzlar: zaruratan, tez*.

⁶⁵ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966.

⁶⁶ Покровская Л. А. Термины родства тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М., 1961. – С.11.

⁶⁷ Холманова З. Бобурнома лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 76.

⁶⁸ Кучкартаев И. Семантика глаголов речи в узбекском литературном языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1978; Содиқова М. Ҳозирги ўзбек адабий тилида феъл стилистикаси (семантик аспектда): Филол.фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1991; Муҳаммедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. – Тошкент, 2005.

V. Miqdor va sanoq tushunchalarini ifodalovchi soʻzlar: asar matnida turkiycha *bir, iki // ikki, üç, tört, beş, altı, yetti, sekiz, toquz, on, yigirmi // yigirmä, otuz, qırq, ellik, altmış, yetmiş, toqsan, yüz, miñ* kabi sanoq miqdori maʼnosidagi, *ikkinçi, üçünçi, törtinçi* kabi miqdorning tartibini bildiruvchi, *ikäv, üçäv* kabi miqdorni jamlash maʼnosidagi soʻzlar keltirilgan.

VI. *Ishora bildiruvchi soʻzlar*. Oʻzbek tilining lugʻat boyligida bunday soʻzlarning oʻz oʻrni va mavqei alohida. Ishora bildiruvchi soʻzlarning asosini va miqdor jihatdan koʻpchilik qismini olmoshlar tashkil etadi. Ularda nafaqat ot, sifat, son, balki feʼl, ravish, taqlidiy soʻz, hatto matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati juda kuchli⁶⁹: *men // män, sen, u, biz, siz, alar* kabi shaxsni ifoda etuvchi ishora bildiruvchi soʻzlar faol qoʻllanishda boʻlgan. Ayrim oʻrinlarda muallif I shaxsni ifoda etuvchi *men* leksemasi oʻrnida kamtarlik maʼnosida *faqir, xāksār* leksemalaridan foydalanadi. Shuningdek, asarda *bari, barča* kabi jamlash; *kim, ne, nečä, negä, qačan, qayan, qaysi* kabi narsa-buyum, belgi yoki miqdor haqidagi soʻroq; *bu* kabi koʻrsatish; *heç nimä, heç kişi, heç kim* kabi inkor; *öz, xud* kabi shaxsni taʼkidlab koʻrsatish maʼnosidagi ishora bildiruvchi soʻzlar ham keng ishlatilgan. Asarda qoʻllangan ishora bildiruvchi soʻzlar, asosan, oʻz qatlamga oid ekanligi bilan xarakterlidir.

Bobning ikkinchi fasli **“Diniy istilohlarning ifodalanishi”** deb nomlangan. TN asarini oʻrganar ekanmiz, uning muallifi tarjimon, tarixchi, ijodkor-adabiyotshunos, koʻp bilimlarni, turkiy, arabiy va forsiy tillarni mukammal oʻzlashtirgan olim boʻlishi bilan bir qatorda, islom dinini yaxshi bilgan, Qurʼon va hadis ilmini egallagan ziyoli inson ekanligi koʻrinadi. Asarda elxoniylik hukmdori Gʻazonxon tomonidan islom dinini qabul qilganligi haqidagi hikoya kiritilgan. Oʻgʻuzxon ham tugʻilganda musulmon boʻlgan va oʻzining kofir qarindoshlariga qarshi kurashgan. Bu jihatlarni ham muallifning asarni islomlashtirishga boʻlgan harakati, yana ham toʻgʻrirogʻi, moʻgʻullarning islomga kelishi, deb baholash mumkin. Asardagi diniy qarashlar Shayboniyxon tomonidan ilgari surilganligiga manbada baʼzi ishoralar bor. Asarning 17 oʻrnida Qurʼon oyatlari, 4 joyida esa hadislardan keltiriladi. Ularning tahlillari dissertatsiyada keltirilgan. Masalan, Oli Imron surasi 26-oyat. Asar ushbu sura oyati bilan boshlanadi:

قُلِ اللَّهُمَّ مَالِكَ الْمُلْكِ تُؤْتِي الْمُلْكَ مَنْ تَشَاءُ وَتَنْزِعُ الْمُلْكَ مِمَّنْ تَشَاءُ وَتُعْزِزُ مَنْ تَشَاءُ وَتُذَلِّلُ مَنْ تَشَاءُ بِيَدِكَ
الْخَيْرُ إِنَّكَ عَلَىٰ كُلِّ شَيْءٍ قَدِيرٌ

Mazmuni: Aytgin: «*Allohim! Barcha podshohlikning egasi! Xohlagan kishingga podshohlik berursan va xohlagan kishingdan podshohlikni tortib olursan, xohlagan kishingni aziz qilursan, xohlagan kishingni xor qilursan. Barcha yaxshilik Sening qoʻlingda. Albatta, Sen har bir narsaga oʻta qodirsan.*

Tarixiy manbalarning tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, muayyan yodgorlik (islom dini yoyilgandagi va undan keyingi davrlarda yaratilganlar)ning basmalasi bilan tanishar ekanmiz, muqaddimada yoziladigan hamd va naʼtning mazmuni bevosita asarning mavzusiga, muallifning maqsadiga uygʻun qilib beriladi ekan. Masalan, ilm olish, taʼlim-tarbiya haqidagi asarda Allohning aynan bandalariga bergan eng katta neʼmatlaridan: tafakkur, aql, ongni rizq qilib bergani uchun Oʻziga hamd aytilib, ilm olishni farz deya marhamat qilgan Paygʻambarimiz Muhammad SAVga salavot va salomlar yoʻllangan.

⁶⁹ Неъматов Х., Фуломов А. К., Махмудов Н.М., Қодиров Н., Абдураимова М. Она тили // Таълим тараққиёти. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг ахборотномаси. 1-махсус сон. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 62.

Bugungi kunda diniy ma'ruza qiladigan barcha ilm ahllarining amri ma'rufi kirish qismi ham aynan shunday: Allohga hamd va Payg'ambarimiz SAVga salom yo'llashda ma'viza mavzusiga oid gaplar bilan boshlanadi, Alloh taologa hamdu sanoni ma'ruza mavzusiga oid qilib aytiladi⁷⁰.

TN asarida ham aynan shu jihatni ko'ramiz, ya'ni asar kirish qismidagi hamd va na't Alloh bandalariga o'z ixtiyori bilan nasib etadigan boshqaruv, hukmronlik qilish va mol-mulk egasi bo'lishi to'g'risida. Asarda madh etilgan podshohlarning aql-idroklari, xalqni to'g'ri yo'lga boshlash fazilatlari bilan go'yoki Payg'ambarimiz SAVga izdoshliklari aytib o'tilmoqda, u Zotga salom yo'llashda ham boshqa sifatleri ichidan aynan shu sifatlariga to'xtalib o'tilmoqda. Bu fikrlarni keyingi o'rinlarda uchraydigan O'g'uzxon, Chingizxon, Shayboniyxon va boshqa xonlar madhida aniqroq kuzatamiz. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy"da o'z idealidagi podshohni tasvirlaganidek⁷¹, TN asari muallifi ham xonning fazilatlari va sifatlarini shunday bayon etadi. Asar Chingizxon, Temur, Shayboniyxon tarixiga bag'ishlanganligi uchun ham Allohning aynan shu sifatleri: mol-mulk, hokimiyat, podshohlikni bergan Allohga hamd va karomati ila muvaffaqiyat kozongan Payg'ambarimiz SAV ga ..., deb muallif tomonidan maqsadli yozilgan.

"Ijtimoiy-siyosiy terminologik leksika" deb atalgan uchinchi faslda asar so'z boyligining ijtimoiy sohaga oid leksemalari haqida so'z borgan, bu sohaga oid 119 ta leksema o'ziga xos mavzuiy guruhlarni tashkil etadi. TN leksikasi bunday terminlarning miqdor jihatdan ko'pligi va faolligi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni bildiruvchi leksik birliklar quyidagi guruhlariga bo'lib tasnif qilingan: 1. Mansab-martaba bildiruvchi so'zlar guruhi. TN sharq tarixida o'ziga xos o'rin tutgan uch buyuk sulolaga mansub hukmdorlar haqida batafsil ma'lumot beruvchi asar bo'lganligi bois, unda eski o'zbek adabiy tiliga xos funksional-semantik jihatlarni aks ettiruvchi mansab-martaba ma'nosini ifodalovchi istilohlar faol qo'llangan. Mansab-martaba terminlari o'ziga xos taraqqiyot bosqichiga ega. Ularning shakllanish jarayoni umumiy tengsizlik kuchaygan va tabaqalanish yuzaga kelgan davrlarga borib taqaladi. Asarda qo'llangan jami 41 ta mansab-martaba bildiruvchi leksemalar yuqori lavozim, oliy mansab nomlari, muayyan vazifa uchun mas'ul shaxs nomlari, madaniyat, san'at va ilm ahli nomlari, muayyan xizmatni bajaruvchi shaxs nomlari kabi bir nechta kichik guruhlariga ajratildi. 2. Ma'muriy-hududiy bo'linishni ifodalovchi terminlar. Ma'muriy-hududiy bo'linish tarixi mulkchilik shakllangan davrga borib taqaladi. Mulk turlari ajrala borgan sari ma'lum hududlar ham mulkiy ko'rinish tarzida taqsimlana boshlagan. Ma'muriy-hududiy birliklarni nomlashda muayyan joyning xususiyatlari, kishilik jamiyatidagi o'rni, istiqomat qiluvchilarning xos jihatlari kabilar nazarda tutilgan. Asarda ma'muriy-hududiy qurilish tushunchasini ifodalovchi 12ta termin qo'llangan: *vilāyat, zamin, kend*.

Bobning to'rtinchi fasli **"Harbiy sohani bildiruvchi terminlar"** deb nomlanib, O'rta Osiyo xalqlari ko'p asrlik urushlar natijasida o'ziga xos harbiy san'atga, strategiya va taktikaga ega bo'lgan⁷². Shuningdek, ularning harbiy qurollari,

⁷⁰ Islom.uz – Ma'rifat maskani

⁷¹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.

⁷² Иванов М.И. О военном искусстве и завоеваниях монголо-татар и Среднеазиатских народов. – Санкт-Петербург, 1875; Абду-с-Саттар казы. Книга рассказов о битвах текинцев. Туркменская историческая поэма XIX века. Издал, перевел, примечаниями и введением снабдил А.Н.Самойлович. – Санкт-Петербург, 1914. – С.134-138; Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М., 1948. – С. 211-227; Троицкая А.Л. Военное дело в Бухаре

qo'shin va uning qismlari, harbiy unvon va amallari ham turlicha bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan harbiy san'at va qurollar o'zgarib, takomillashib, natijada harbiy sohaga doir so'z va terminlar nomenklaturasi ham boyib borgan. Bu terminlarning ko'pi asliy turkcha-o'zbekcha bo'lib, ba'zilar boshqa tillardan (fors-tojik, arab, mo'g'ul, keyinroq, rus tillaridan) qabul qilingan. Shuningdek, turkiy tillarga xos ayrim harbiy terminlar boshqa tillarga ham kirib o'zlashganligi ma'lum⁷³. TN asari tilida qo'llangan harbiy terminlar tematik jihatdan quyidagi guruhlarga tasniflanib o'rganildi: 1) urush va uning turlarini ifodalovchi so'z va terminlar; 2) qo'shin va uning qismlarini ifodalovchi terminlar; 3) harbiy tartib, strategiya va taktikaga doir so'z va terminlar; 4) harbiy qurol-aslaha va asboblarga doir terminlar; 5) harbiy unvon va amallarni ifodalovchi terminlar.

Beshinchi fasl **“Asarda qo'llangan etnonimlar”** deb nomlanib, unda TN o'zbek xalqi, umuman, O'rta Osiyo xalqlari etnonimlarini o'rganishda qimmatli manba hisoblanishi ta'kidlanadi. Asarda ko'plab urug' nomlari biror xon, amaldor yoki harbiyning qaysi urug'ga mansubligini ko'rsatishda yoki ma'lum hududdagi aholining kelib chiqishini bayon etishda keltiriladi: *burkut, do'rmon, iyjon, kenegas, qiyot, qo'ng'itor, qushchi, masit, tuboyi, uyshin, qudag'ay, mang'it, muluj, nayman, uyg'ur, chimboy, qorliq, nukuz, timat, tuman ming, o'tarchi* va h.k., ularning turmush tarziga oid ba'zi ma'lumotlar ham berilib boriladi. TNda turk hamda shu o'zakdan shakllangan *türkiy* yasama so'zi quyidagi ma'noda qo'llanishda bo'lgan: *türk* – «turkiy xalq, turk»; *türkiy* – «turklarga xos, turkcha, turkiy». Turkiy qabilalarni umumlashtirib ifodalash uchun *atrāk* termini qo'llangan. Shuningdek, asar leksikasida *furs, fārsiy, qurayš, yassāniy, qifčaq // qipčaq, a'rāb, juhud, qibtī, ibriy, yunān* kabi etnonimlar ham turli millat, elat va qabilalarni nomlash uchun xizmat qilgan. Ilovada keltirilgan 241ta etnonimlar kelgusidagi tadqiqotlar uchun obekt vazifasini o'taydi.

3.6-faslda **“Manbadagi antroponimlar tahlili”** izohlangan, TN leksikasida eng ko'p uchraydigan nomlardan biri kishi ismlari – antroponimlardir. Turkiy tillarda shaxs otlarini o'rganish XIX asr oxiri XX asr boshlarida amalga oshirila boshlangan deb ko'rsatilsa-da, XI asrlardayoq shaxs otlari izohiga e'tibor qaratilganini ta'kidlash joiz. Masalan, DLT da bir qator shaxs otlari izohi keltirilgan. Antroponimikadagi dastlabki tadqiqotlar tarixiy-etnografik xarakterda yuzaga kelgan⁷⁴. TN leksikasidagi antroponimlar o'zbek antroponimikasidagi mavjud mezonlar asosida tavsiflandi⁷⁵. Asarda keltirilgan 2155 ta shaxs ismlarining mavjudligi birgina ushbu sohaga oid lug'at tayyorlash uchun qanchalik muhim manba ekanligini ko'rsatadi. TNda asosan xonlar, ularning ajdod-avlodlari, amaldorlar, boshqaruvdagi shaxs ismlari antroponimlarning asosiy qismini tashkil etadi. Ta'kidlash zarurki, nomlar asosan arabcha va forsha-tojikchani tashkil qiladi. Leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra asarda qo'llangan antroponimlar: ismlar, afsonaviy nomlar, taxalluslar, laqablar kabi guruhlarga ajratildi.

в первой половине XIX века. Труды АН Таджикской ССР. Том 17. – Душанбе, 1953. – С.211-227; Троицкая А.Л. Несколько документов по военному делу из архива Кокандских ханов XIX века. В сб. Восточный сборник. Вып. 3. – М., 1972. – С. 138-148.

⁷³ Сороколетов Ф.П. История военной лексики в русском языке. – Л., 1971. –С. 252-256; Порохова О.Г. Лексика Сибирских летописей XVII века. – М.: Наука, 1969. – С.159; Калинина О.З. Очерки лексикологии современного литературного пушту. – М.: Наука, 1972. – С.128.

⁷⁴ Холманова З. Бобурнома лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 65.

⁷⁵ Антропонимларни таҳлил қилишда Э.Бегматов (1965), Н.Хусанов (2000), Ш.Ёкубов (1994) таснифларидан фойдаланилди.

3.7-faslda **“Joy nomlarining qo‘llanilishi”** tadqiq etilgan. TN leksikasida jami 2119 ta toponim ishlatilgan bo‘lib, ularni tilshunoslikning turli aspektlarida tahlil etamiz. Lug‘atga toponimlar ilova qilingan. Asar leksikasidagi toponimlar hajmiy xususiyati va tarixiy-etimologik tasnifi bo‘yicha o‘rganildi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Tavorixi guzida. Nusratnoma” leksikasining shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra tadqiqi**” deb nomlanib, uning **“Asardagi ma‘nodoshlik tavsifi”** nomli birinchi faslida har qanday tildagi so‘zlar orasidagi ma‘no va shakl munosabatlarida shakldagi har xillik va ma‘nodagi yaqinlik darajalari nihoyatda murakkab va xilma-xil bo‘lishi, ba‘zi so‘zlarning ma‘nodosh yoki ma‘nodosh emasligi isbot talab etadigan masala ekanligi bayon etiladi. So‘z va uning fonetik variantlari o‘zbek tili tarixida so‘zning biror shevaga, til taraqqiyotidagi ma‘lum bir davrga tegishlilikini ko‘rsatadi. Xususan, TNdagi sinonimlar qatori 354 ta bo‘lib, unda qariyb 946 ta so‘z qatnashgan. Muallif asar leksikasida ma‘nodosh so‘zlardan unumliroq foydalanadi. Asar leksikasida ikki-uch so‘zdan tarkib topgan sinonimik qatorlar ko‘p miqdorni tashkil qilgan, TNda qo‘llangan sinonimik qatorlar semantik, struktur, leksik-grammatik va genealogik tamoyillarga ko‘ra tahlil qilindi.

Bobning ikkinchi fasli **“Manba leksikasining shakldoshlik xususiyatlari”** deb nomlangan, TN asarida omonim so‘zlar ham, ulardan tashkil topuvchi omonimik qatorlar ham ko‘p miqdorni tashkil qiliadi. Asarda jami 66 ta omoleksema 39 ta omonimik qatorda birlashadi. Omoleksemalar turli grammatik shakllarga kirishi nuqtai nazaridan *omonim omoleksemalar* va *omoforma omoleksemalar* deb ajratiladi⁷⁶. Omonimik qatorlarni tashkil etuvchi omoleksemalar son jihatdan ko‘p emas. Ushbu omoleksemalarni leksik-semantik va leksik-grammatik ma‘nolari hamda strukturasi ko‘ra guruhlarga bo‘lib tahlil etilgan. Matnda «yurak, qalb» ma‘nosidagi arabcha *qalb I* o‘zlashmasi «yolg‘on, soxta, qalbaki» ma‘nosidagi *qalb II* omoleksemasi bilan o‘zaro shakldoshlikni yuzaga keltiradi: *qalb visāl qildi; on yeti qalb diramya sattilar*. Ma‘lumki, ba‘zan omonimlik ko‘p ma‘noli so‘zlarning turli ma‘nolari orasidagi ma‘no ipining uzilishi natijasida ham paydo bo‘ladi. Shunday omonimlardan biri turkiycha *yīyač* so‘zi bo‘lib, u TN matnida «daraxt» hamda o‘lchov birligi (numerativ) ma‘nolarida quyidagicha ishlatilgan: *xurmā yīyači ekti; Misrdin bir yīyač yīroq muqarrar qildi*.

Bobning **“Asar leksikasidagi zid ma‘nolilik tadqiqi”** deb nomlangan uchinchi faslida matnda aniqlangan antonimik uyalar mansub leksemalar, asosan, sifat, ot, fe‘l va ravish so‘z turkumi doirasida voqelanishi e‘tiborga olingan. TN matnida so‘zlarning ma‘no jihatdan zid (qarama-qarshi) munosabatga kirishuvi nuqtai nazaridan voqelanadigan til hodisasi hisoblanmish antonimlardan o‘z o‘rnida mohirona foydalanilgan. Obidada qariyb 250 dan ortiq antonimik uyalar mavjudligi aniqlandi, ularning asosiy qismini bir jumla yoki mazmunan bir-biri bilan bog‘liq gaplardan tashkil topgan kontekstda voqelangani muallifning yuksak badiiy salohiyatidan darak beradi. Asar matnida voqelangan antonimik uyalar turli xil (leksik-grammatik, genealogik, struktur) tamoyillarga asoslanib tahlil etildi.

4.4-faslda **“Tavorixi guzida. Nusratnoma” asari so‘z boyligida qo‘llangan ko‘pma‘nolilik**” masalasi yoritiladi. Biror bir adib uslubiga baho berishda, avvalo, uning so‘zlar ko‘p ma‘noliligidan qay darajada foydalanishi e‘tiborga olinadi. Bu leksikologiya, ayniqsa, semasiologiya uchun qimmatlidir. Aytish mumkinki, TN

⁷⁶ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 37.

muallifi eski o‘zbek adabiy tilini har tomonlama sayqallashtirgan, rivojlantirgan, boyitgan. Uning leksik birliklarni ko‘p ma’noda ishlatish mahorati TNda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu asarda muallif qo‘llagan polisemantik so‘zlarni semantik, leksik-grammatik, genealogik tamoyillar hamda ma’no ko‘chishining turli usullari tahlil etiladi. Izlanishimiz ko‘p ma’nolilikning fe’l kategoriyasiga oid so‘zlarda faolligini ko‘rsatdi. Asar matnida qirqqa yaqin sof turkiycha ko‘p ma’noli fe’llardan foydalanilgan. Birlamchi ma’nodan tashqari, ikkilamchi ma’nolarning miqdori jihatdan polisemantik so‘zlarni ikki va undan ortiq ma’noga ega leksik birliklarga taqsimlab o‘rganish o‘zini oqlaydi, deb hisoblaymiz. Masalan, “ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lmoq” bosh ma’nosini o‘zida mujassamlashtirgan sof turkiycha *kör* fe’li hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘n olti ma’noni ifodalaydi (O‘TIL,2,469-470) VIII-XII asrlarda bu fe’lning olti ma’noda iste’molda bo‘lgani e’tirof etilgan (DTS,317) Alisher Navoiy asari tilida ushbu fe’l leksemaning o‘n ma’noda qo‘llanilgani ma’lum (ANATIL,II,153) asarda *kör*= fe’l leksemasi yetmish olti o‘rinda tubandagi ma’nolarda ishlatilgan: 1) “ko‘rmoq, qaramoq”: ... *qarasin körüb, mehri harakatqa kelib*; 2) “bilmoq”: *tavārixda körübmenkim, qaysar özi bilä ket* 3) “hisoblamoq, qabul qilmoq”: *çun özin aña harif kormäy*; 4) qo‘shma fe’lning tarkibiy qismi sifatida turli ma’nolardagi fe’llar yasaydi: *zulm kör; ravā kör; ojiz kör h.k.*

XULOSA

1. O‘zbek tili tarixida yaratilgan manbalar uzoq va boy o‘tmishga ega. Qadimgi qo‘lyozmalar maqsadi, ko‘lami, mazmuni jihatidan turlicha bo‘lsa-da, ularni yozishda umumiy (mavzudagi o‘xshashliklar, asar tarkibidagi qismlar, hoshiya va ularning strukturasi, mualliflarning so‘z qo‘llash mahorati, matnning muayyan usulda berilishi) an’analarning mavjudligi e’tiborga olingan.

2. Tarixiy manbalar muttasil o‘zgarishda bo‘lgan tilning taraqqiyot bosqichlarida, uni tadqiq etishda o‘zining ahamiyatini doimo namoyon etadi. Tilshunoslikda muayyan obida tilini o‘rganish, matn tabiatini ochish, davrning takomil bosqichlarini aniqlash, asarning xalq ma’naviy merosiga aylanish jarayonlari hamda buning natijasida millatning tafakkur tadriji, lisonning tarix va bugunida yuz berayotgan o‘zgarishlar til masalalarining muhim kategoriyalaridan biri sifatida dolzarb hisoblanadi.

3. TN asari XV asrning eng nodir tarixiy manbalaridan biri bo‘lib, bugungi kunda uning 2 ta asosiy va 7 ta qisqartirilgan nusxalari mavjud. Asar muallifi noma’lum bo‘lsa ham, manba orqali uning til, adabiyot, tarix va diniy ilmlarni chuqur bilgan, turkiy, arabiy va forsiy tillarni yuqori saviyada egallagan, aruz vaznida she’r bitishni puxta o‘zlashtirgan shoir, iste’dodli shaxs ekanligini anglash mumkin.

4. Asar o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, so‘zboshi, hamd, na’t, muqaddima, asosiy qism, kolofondan iborat. Sharq kitobat san’ati va manbalarini yaratishdagi an’anaviy mezonlar asosida tartib berilgan bo‘lsa ham, u o‘z davrida yozilgan tarixiy obidalardan nasrda (kam o‘rinlarda nazmiy parchalar ham uchraydi) bitilganligi, o‘z qatlam bilan bir qatorda o‘zlashmalarning ham salmoqli o‘rin egallashi, asarda mavjud leksemalarni mavzuiy guruhlariga bo‘lib o‘rganish imkoniyati, o‘ziga xos tarkibiy tuzilishga egaligi, asarda asosiy matndan tashqari, hoshiya qaydlarining mavjudligi kabi jihatlari bilan farqlanadi.

5. Asar tahliliga bag'ishlangan ilk tadqiqotlar dastlab rus turkologlari tomonidan amalga oshirilgan. Keyinroq esa o'zbek, turk, qozoq olimlari olib borgan izlanishlar asarning ilmiy-amaliy qiymatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Obidaning filologlar va tarixchilar tomonidan o'rganilishiga uning ulkan tarixiy davrni qamrab olgani, tasvir uslubi, ilmiy va badiiy qiymati asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

6. Manbada takrorsiz qo'llangan 5717 ta so'z XV-XVI asr o'zbek adabiy tili lug'at boyligini muayyan darajada mujassam etgan.

7. Asar so'z boyligida qadimgi turkiy til (VII-X), eski turkiy til (XI-XIV) va eski o'zbek adabiy tilining leksik-semantik xususiyatlari namoyon bo'lgan. Unda qo'llangan 1629 ta tub turkiy so'zlarning 84%i qadimgi turkiy til va eski turkiy tilda ishlatilgani nafaqat eski o'zbek adabiy tilining shakllanishida bu tillarning asos vazifasini o'tagani, shuningdek, muallifning ona tiliga bo'lgan hurmat va ehtiromining cheksizligini yana bir bor isbotlaydi. Izlanish asardagi turkiy qatlamga oid so'z boyligining 92%i hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanishda davom etayotgani, atigi 8%i eskirgan so'zlar sirasiga kirganligini ko'rsatdi.

8. TN so'z boyligining salmoqli ulushi (2914)ni o'zlashmalar tashkil etgan. Turli mavzuiy guruhlarni qamrab olgan arabcha o'zlashmalar (1447)ning 15%i eski turkiy til obidalarida iste'molda bo'lgan. Ushbu xususiyat o'z davrida arabcha leksik elementlarning eski o'zbek adabiy tili so'z boyligi rivojida o'rnining darajasini belgilaydi. Asarda ishlatilgan arabcha o'zlashmalarning 76%i hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud, qolgan 24%i ekstralingvistik omillar bois iste'moldan chiqqan.

9. Asar so'z boyligining taxminan 24%ini (1389) forscha-tojikcha o'zlashmalar tashkil etgan. Narsa-buyum, belgi-xususiyat, mavhum ma'no ifodalovchi bir qator forscha-tojikcha o'zlashmalar eski o'zbek adabiy tili qonun-qoidalariga bo'ysungan holda o'zlashtiruvchi tilga xos semantik xususiyatlarni namoyon etgan. Asarda qo'llangan forscha-tojikcha o'zlashmalarning 16%i hozirgi o'zbek adabiy tili so'z boyligida mavjud emas.

10. Funktsional-semantik tahlil TNda qo'llangan so'zlarning ma'noviy-vazifaviy xususiyatiga ko'ra 37 mavzuiy guruhga birlashganini ko'rsatdi. Ijtimoiy-siyosiy, harbiy, ilmiy, diniy terminlarning asosiy qismini arabcha va forscha-tojikcha, qisman, o'zbek (turk)cha, harakat-holat, inson tana a'zolari (somatizm), qarindoshlik, hayvonot dunyosi (zoonim), sanoq, miqdor ma'nosini ifodalovchi leksemalarning asosini o'z qatlam, antroponim va toponimlarning aksariyatini esa forscha-tojikcha so'zlar tashkil etgan.

11. So'z ma'nolarining paradigmatic munosabati semantik jihatdan qaralib, ma'no jihatdan bir xil – sinonim va ma'no jihatdan qarama-qarshi – antonimlarning asarda keng o'rin egallagani aniqlandi. Sinonimik paradigmadagi har bir so'z o'zining ma'no nozikligidan kelib chiqib, mutlaq (absolyut) va semantik (o'zaro yaqin ma'noli) sinonimlarni voqelantirgan. Ular ma'no qirrasini, pragmatik semasi va uslubiy jihati bilan farqlangan. Sinonimik qatorlar, asosan, ot, sifat, fe'l turkumli so'zlar doirasida yuzaga chiqqan hamda bu leksemalar ma'noning darajasini belgilashga xizmat qilgan.

12. Zid ma'noli so'zlar o'z qatlam va o'zlashmalararo tarkibdan iborat. Antonimlarning, asosan, belgi-xususiyat, harakat va holatni bildiruvchi so'zlarda uchrashi aniqlandi. Asar matnida mavjud omoleksemalar turli xil atash ma'nolarida omonimik qator hosil qilgan. Omonimlarning asosiy qismi o'z qatlamga mansub

leksemalardan iborat. TN muallifi eski o‘zbek adabiy tilining boy va rang-barang imkoniyatlaridan keng ko‘lamli istifoda etgan holda tilning go‘zalligini va imkoniyati kengligini ko‘rsatib berdi.

13. Asar muallifining leksik birliklarni ko‘p ma’noda ishlatish mahorati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Izlanishlar ko‘p ma’nolilikning ot (50%) va fe’l (30%) leksemalar doirasida faolligini ko‘rsatdi. Shuningdek, sifat (10%) va boshqa so‘z turkumlari doirasida qisman (10%) kuzatildi. Manba yaratilgan davr eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llangan leksemalarda yuz bergan ma’no o‘zgarishlari yangi ma’no hosil qilishning metafora, metonimiya, sinekdoxa singari usullari zaminida voqelangan.

14. Muallif voqelikni ifodalash, inson ruhiyati, fe’l-atvorini yoritish jarayonida mubolag‘a, jonlantirish, epitet, o‘xshatish singari badiiy vositalaridan ham ustalik bilan foydalangan, bunday mohirlik tasvir obyektining ta’sir darajasini oshirishda ahamiyat kasb etgan.

15. Asar leksikasidagi leksik-semantik jarayonlarni atroflicha tahlil qilish til taraqqiyotidagi o‘zgarishlarni kuzatish, turkiy leksikaga xos uslubiy-semantik jihatlarni, o‘zbek adabiy tilining rivojlanishi borasidagi nazariy qarashlarni oydinlashtirishga xizmat qiladi.

16. TN nafaqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan, balki tarixshunoslikda ham muhim mohiyatga ega tarixiy asar ekanligi bilan ahamiyatlidir. Asar XV asr oxiri – XVI asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tili tarixini, uning leksik-semantik, grammatik xususiyatlarini o‘rganishda muhim va qimmatli manba hisoblanadi. Asar nafaqat o‘zbek, balki arab hamda fors-tojik tillari tarixida ham munosib o‘rin tutadi. Manba turkiy tillar tarixiy taraqqiyotidagi, xususan, leksikasidagi o‘zgarishlarni kuzatishda, tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREE
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 AT FERGHANA STATE UNIVERSITY**

FERGHANA STATE UNIVERSITY

GAFUROVA SURAYYO ULUGBEKOVNA

LEXICON OF THE WORK “TAVORIXI GUZIDA. NUSRATNOMA”

10.00.01 – Uzbek language

**DISSERTATION
ABSTRACT for doctor of philological sciences (DSc)**

Fergana - 2025

The theme of DSc dissertation is registered by Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under No: B2020.1.DSc/Fil200.

Dissertation was completed at Fergana State University.

The abstract of the dissertation is posted in three (Uzbek, English and Russian (resume)) languages on the website of the Scientific Council (www.fdu.uz) and on the website «Ziyonet» Information-educational portal (www.ziyonet.uz)

Scientific consultant: **Dadabaev Khamidulla Aripovich**
Doctor of Philological sciences, Professor

Official opponents: **Odilov Yorkinjon Rakhmonalievich**
Doctor of Philological sciences, Professor

Urazboev Abdulla Durdibaevich
Doctor of Philological sciences, Associate professor

Nursan Ildiri
Doctor of Philological sciences, Associate professor

Leading organization: **Buxara State University**

Defense of the Dissertation will take place on « 27 » March 2025, at 8⁰⁰ p.m. at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Fergana State University (Address: 105, B.Marginoniy Street, Fergana, 100151. Tel: (99873) 244-57-82; fax: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertation could be reviewed information-resource center of Ferghana State University (registration number 1162) Address: 19. Murabbiylar Street, Fergana, 100151, Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertation abstract sent out on « 16 » March 2025.

(Mailing report number 10 on « 15 » March 2025)



S.M.Muminov
Chairman of Scientific Council Awarding scientific degree, Doctor of Philological sciences, Professor

M.T.Zokirov
Secretary of Scientific Council Awarding scientific degree, Candidate of sciences, Professor

G.Z.Rozikova
Chairman of Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degree, Doctor of Philological sciences, Professor

INTRODUCTION (Doctor of Science (DSc) Dissertation Annotation)

Relevance and necessity of the dissertation theme. In global linguistics, one of the primary tasks is the scientific study of ancient written monuments that serve as classical examples of each national language, with the aim of preserving and conveying their original meaning to contemporary generations. Systematic research into lexicology, the most dynamic area of language, and the transmission of its expression, content, and significance in historical sources to future generations is more important now than ever before. In this sense, it becomes possible to study the problems related to the lexicon of historical works, to analyze their historical development in synchronic and diachronic aspects, and to identify philosophical and synergetic laws related to the history of language. A historical approach to any linguistic phenomenon, relying on primary sources and comparing the lexicons of written monuments created in different periods of language development, is considered a crucial task to identify both commonalities and differences.

Linguistic research conducted in the world today, including studies on historical sources and their lexical features, holds significant scientific and practical importance in the development of this field. The study of the language of written monuments, the preparation of critical editions of manuscripts, their publication, dissemination to the general public, translation into foreign languages, and research into their linguistic features have attracted great interest from many scholars. These endeavors contribute to the global recognition and status of languages.

In recent years, our country has created extensive opportunities and conditions for studying the scientific heritage of our ancestors, and targeted scientific research dedicated to this issue has been conducted. At the same time, the priority direction was set to reveal the still unexplored layers of our unique scientific heritage, in particular, to study the unique manuscripts stored in the funds of our country and abroad. Currently, “...over 100,000 manuscripts are stored in Uzbekistan's book collections. Unfortunately, these rare books have not been fully studied; they are waiting for scholars and their readers. These unique works can provide answers to many pressing problems of our time... However, we must openly admit that despite being the heirs of such a precious heritage and possessors of such wealth, we have not done enough to study them comprehensively and to convey them to our people, especially our young generation, and to the global community”⁷⁷. The need to recognize this has become the basis for studying this invaluable spiritual heritage from a linguistic standpoint. Today, Uzbekistan is creating and maintaining an electronic database of unique manuscripts stored within its borders. Systematic efforts are being made to conduct in-depth research and provide theoretical descriptions of these manuscripts. Scholarly interpretations of written heritage are being published in both Uzbek and foreign languages through mass media and the internet. Sufficient conditions are being created to introduce the works of these manuscripts to domestic and foreign scholars, specialists, and students and to facilitate their study. Moreover, the issue of conducting specialized research into a number of problems, such as the lexical features of sources that played a significant role in the historical development of the language, and the study of spiritual heritage

⁷⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017 йил 23 декабрь, № 258.

from a linguistic perspective, had been awaiting a solution. In particular, the vocabulary of the 16th-century source "Tavorixi guzida. Nusratnoma" which occupies a special place in the history of the Uzbek language, has not yet been studied in a monographic format. As is known, currently, in our country, "...there is a special focus on scientific research aimed at revealing many unexplored layers of our national cultural heritage in the fields of textual studies, literary source studies, linguistics, philosophy, and the history of culture"⁷⁸. It plays a fundamental role in further expanding the scope of scientific research in this area.

This dissertation research contributes to the fulfillment of tasks outlined in the following decrees of the President of the Republic of Uzbekistan: the Decree No. PF-4958 of February 16, 2017 "On further improving postgraduate education", the Resolution No. PQ-2909 of April 20, 2017 "On measures to further develop the higher education system", the Decree No. PF-5850 of October 21, 2019 "On measures to fundamentally enhance the prestige and status of the Uzbek language as the state language", the Resolution No. PQ-2789 of February 17, 2017 "On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, the organization, management, and financing of scientific research", the Resolution No. PQ-2995 of May 24, 2017 "On measures to further improve the system of preservation, study, and promotion of ancient written sources", the Decree No. PF-6084 of October 20, 2020 "On measures to further develop the Uzbek language and improve language policy in our country", the Decree No. PF-6097 of October 29, 2020 "On approving the concept of development of science until 2030" and the Decree No. PF-60 of January 28, 2022 "On the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026", as well as other normative legal acts related to this activity.

